

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

**Veterinariya fakulteti
«5440100-Veterinariya» ta'limyo'nalishi**

MAMAYUSUPOV BAXTIYOR ALIBEKOVICH

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “MAHSULDOR SIGIRLARDA TUYOQ BUG‘IN
KASALLIKLARINI UCHRASH DARAJASI VA DAVOLASHDA
ZAMONIVIY USULLARINI QO‘LLASH”**

Ilmiyrixbar:assistent:

Muxtorov.B.Z

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga qo‘yildi:

Veterinariya fakulteti

dekani v.v.b., dotsent

_____ **N.O.Farmonov**

«_____» _____ **2016 yil**

**“Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi,
jarrohligi va farmakologiya” kafedrası
mudiri, v.f.d., dotsent _____**

N.B.Dilmurodov

«_____» _____ **2016yil**

№ _____ - sonli yig‘ilish bayoni

SAMARQAND – 2016

MUNDARIJA

I	KIRISH.	3
1.1.	Mavzuning dolzarbligi	8
II	ADABIYOTLAR SHARHI	10
2.1	Mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda tuyuq-bo'g'in kasalliklarini etiologiyasi va klinik o'zgarishlari	10
2.2.	Mahsuldorligi yuqori bo'lgan qoramollarni tuyuq-bo'g'in kasalliklarini davolash va oldini olish	25
III	SHAXSIY TEKSHIRISHLAR.	35
3.1.	Tekshirish materiallari va uslubiyoti	35
3.2.	Qoramollar tuyog'larining anatomo-topografiyasi	35
3.3	Mahsuldor sigirlarda tuyuq bo'g'im kasalliklarini keltirib chiqaruvchi etiologik omillar va uchrash darajasi.	41
3.4.	Tuyuq bo'g'in kasalligini davolash usullari.	47
3.5.	Olingan natijalarning taxlili	49
3.6.	Mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarda tuyuq bo'g'in kasalligini oldini olish chora tadbirlari	50
IV	XULOSA LAR	52
V	AMALIY TAVSIYALAR	54
VI	Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi	55
VII	Mexnat faoliyati xavfsizligi va fuqarolar mudofaasi	58
VIII	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	61
IX	ILOVALAR	65
X	Internet ma'lumotlari	70

I.KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida” gi Qonunining 251 – moddasiga muvofiq tuman hokimining halq deputatlari tuman Kengashining tumanning 2015 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi yakunlari va 2016 yilga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yunalishlari bo‘yicha hisoboti eshitisli belgilangan.

Biz bugungi majlisimizda 2015 yilda tumanni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini muhokama etib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, qushimcha rezervlardan foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab, davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan iqtisodiy rivojlantirish dasturining 7 ta eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirilishini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar belgilab olishimiz zarur.

O‘zlaringiza ma‘lum, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi muhtaram yurtboshimiz nutqida jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotganligiga qaramay, 2015 yilda iqtisodiy dasturning eng muhim yo‘nalishlari va ustuvor vazifalari hamda chuqur tarkibiy o‘zgartirishlar, xususiyl mulk va kichik biznes manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlash bo‘yicha har tomonlama puxta Dasturning izchil va tizimli amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyot o‘shishining barqaror va yuqori sur‘atlariga hamda makroiqtisodiy muvozanatga erishilganligi qayd etildi.

Nufuzli xalqaro moliyaviy-iktisodiy tashkilotlar va ilmiyl markazlar tomonidan yuqori baholanayotgan yutuqlar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari butun jahonda “o‘zbek modeli” sifatida e’tirof etilib, bu tanlangan rivojlanish strategiyasining yuqori samaradorligi va muvaffaqiyatini yana bir bor tasdiqlagani alohida qayd etildi. Nufuzli Jahon iqtisodiy forumi reytingiga muvofiq, O‘zbekiston 2014-2015 yillardagi rivojlanish yakunlari va 2016-2017 yillarda iqtisodiy o‘shish prognozlari bo‘yicha dunyodagi eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakat qatoridan joy oldi.

Qishloq xo'jaligi soxasida xam keyingi yillarda amalga oshirilayotgan isloxotlar, yaratib berilgan keng imkoniyatlardan oqilona foydalanish natijasida barqaror o'sish sur'atlari saqlanib kelmoqda.

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy samarasini berib, shirkat, fermer xo'jaliklari tomonidan etishtirilayotgan mahsulotlar hajmi doimiy o'sib borishi, pirovard natijada chupon oylasining daromadini ko'paytirish imkonini bermokda.

Tuman shirkat xo'jaliklarida cho'pon otarlari oilaviy pudrat, pay munosabati va chek tizimi orqali ish yuritmokda.

Material xarajatlarining chek tizimida ishlatilishi uning iqtisod qilinishida o'zining ijobiy natijasini berib, brigada a'zolarining yakuni natijaga bo'lgan qiziqishini tug'dirmokda.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda joriy yil boshiga mayda shohli mollar 316 ming boshni, yirik shohli qoramollar 2494 boshni, otlar 4037 boshni, tuyalar 2488 boshni tashkil etib, hisobot davrida jami 10351 tonna go'sht, 41,5 ming dona qorakul terisi, 480 tonna jun, 2380 tonna sut etishtirildi.

Shirkat xo'jaliklarida 2016 yilning 1 yanvar holatiga mayda shohli mollar 240,4 ming boshni, yirik shohli kora mollar 641 boshni, otlar 2949 boshni, tuyalar 1547 boshni tashkil etib, utgan yilga nisbatan mayda shohli mollar 4,4 ming boshga, yirik shohli qora mollar 284 boshga, otlar 149 boshga, tuyalar 5 boshga ortti.

Qo'zilatish mavsumida ho'jaliklarda 50,2 ming bosh qo'zi o'stirishga qoldirilib, ushbu ko'rsatkich utgan yilga nisbatan 120,0 foyzga bajarildi.

Ho'jaliklarda 2014 yilga nisbatan gusht etishtirishni 3,4 foyzga, sut etishtirishni 5,1 foyzga, jun etishtirishni 4,6 foizga ko'paytirishga erishildi.

Fermer xo'jaliklarida 3624 bosh mayda shohli mollar, 83 bosh yirik shohli mollar, 81 bosh otlar kutimga olinib, fermerlar tomonidan 81,0 tonna go'sht, 667 dona korakul terisi, 6,6 tonna jun, 26,4 tonna sut etishtirildi.

Tumanda o'tgan yilda qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturga asosan jami 4 ta loyiha shundan, 2 ta qoramolchilik (go'sht etishtirishni kengaytirish), 1 ta parrandachilik, 1 ta issiqxona xo'jaligi foydalanishga topshirildi.

Lekin, qishloq xo'jaligi soxasida amalga oshirilgan ishlar bilan birqatorda kamchiliklarga xam yo'l quyildi.

Xo'jalik raxbarlari va mutaxassisilari tomonidan belgilangan choralarning o'z muddatida bajarilmasligi, nazorat ishlarining olib borilmaganligi "Yo'l xaritasi"da rejalashtirilgan mol bosh soni prognozi, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi qarzdorlikni keskin kamaytirish ishlarining amalga oshirilmasligiga olib keldi. "Yo'l xaritasi" bo'yicha mol bosh soni "Keregetau", "Balimanov", "Kerizbulaq", "Ayaqquduq", "Tomdi" shirkat xo'jaliklarida bajarilmadi.

Shuningdek, byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalardan qarzdorlikni undirish topshirig'i atiga 25,1 foizga bajarildi.

Tumanda yil yakunida shirkat xujaliklarining debitorlik qarzlari 529 mln. sumni, kreditorlik qarzlari 7628 mln. sumni tashkil etib, yil boshiga nisbatan debitorlik qarzlari 1126 mln. sumga, kreditorlik qarzlari 1606 mln. sumga kamaygan.

Xo'jalik raxbarlari uzlariga tegishli xulosalar chiqarib, yuqoridagi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishlari shart.

Hurmatli sessiya ishtirokchilari!

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatiga ustivor yo'nalish sifatida e'tibor qaratilib, bu borada keng ko'lamdagi islohotlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar Dasturi bu

borada amalga oshirilayotgan ishlarning yangi bosqichiga kutarilishiga xizmat qilmoqda.

Mazkur dastur asosida tumanda mutasaddi tashkilotlar tomonidan 300 dan ortiq ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy hamda huquqiy tadbirlar, uchrashuvlar, davra suxbatlari, festivallar va targ'ibot loyihalari, shuningdek 20 dan ortiq ko'rik-tanlov va sport musobaqalari o'tkazildi.

Natijada, dasturga muvofiq o'tkazilgan barcha tadbirlarga jami 3 mingga yaqin tumanimiz yoshlari qamrab olindi.

Muxtaram Prezidentimiz 2016 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlarini belgilab berar ekanlar, "Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zahiralarini izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo'lishi zarur, "deb ta'kidladilar.

Ushbu ustuvor yo'nalishlarni tuman miqyosida to'la va sifatli bajarish uchun bugun har birimiz o'z oldimizda turgan vazifalarni aniqlab olishimiz va yil davomida uni amalga oshirib borishimiz talab etiladi.

Muhtaram yurtboshimiz tomonidan 7 ta eng muhim ustuvor yo'nalish ushbu marralarga erishish uchun muhim asos hisoblanadi.

2016 yilda belgilangan asosiy iqtisodiy kursatkichlar prognozini, jumladan sanoat, xalq ist'emoli mollarini ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, pullik va jami xizmatlar, chakana savdo aylanmasi, qurilish, xududiy eksport topshirig'ini bajarish yuzasidan barcha zaruriy choralarni bugundan ko'rishimiz talab etiladi.

Shuningdek, 2016 yilda maxalliyashtirish dasturi asosida 588,0 mln. so'mlik importbop maxsulotlar ishlab chiqarilishi kutilmoqda.

Maqsadli dasturda belgilangan loyixalarni, jumladan hududiy ishlab chiqarish ob'ektlarinin tashkil qilish dasturidagi jami loiyha qiymati 150,0 mln.so'mni tashkil etadigan 6 ta loiyhani, tumanni 2016-2017 yillarga ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlantirish dasturining sanoat yo‘nalishi bo‘yicha Respublika on-layn tizimiga kiritilgan jami loiyha qiymati 2585,0 mln.so‘mlik 7 ta loyihani muddatida ishga tushirishiga aloxida e‘tibor qaratilishi lozim.

Aholining ichimlik suvi ta‘minotini yaxshilash maqsadida tumanda 0,5 km. ichimlik suvi tarmoqlari foydalanishga topshiriladi. Buning xisobiga 75 aholi honadonlariga toza ichimlik suvi bilan ta‘minlanishiga erishiladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasida iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish, shirkat xo‘jaliklarining iqtisodiy ahvolini yaxshilash maqsadida 2016 yilda mol bosh soni, go‘sht, jun, qorakul terisini etishtirish bo‘yicha belgilangan rejalarni bajarish kuzda tutilmoqda.

Kuzlangan maqsadlarga erishish uchun biz 2016 yilda qishloq xo‘jaligi sohasi bo‘yicha jami 30 ta loyixani, jumladan qoramolchilik bo‘yicha 4 ta, quychilik bo‘yicha 14 ta, tuyachilik bo‘yicha 3 ta, echkichilik bo‘yicha 2 ta, kurkachilik bo‘yicha 7 ta loyixani muddatida ishga tushirishni ta‘minlashimiz zarur.

2016 yil dasturi bo‘yicha “Abay” massivida umumiy qiymati 5 mlrd. 171,9 mln. so‘mga teng bo‘lgan 30 ta namunali uy-joylar qurilishi, umumiy qiymati 2307 mln. so‘mga teng bo‘lgan 1 ta infratuzilma ob‘ekti, 1 ta sog‘liqni saqlash muassasasi, 3 ta ichimlik suv va 1 ta boshqa ob‘ektlar qurilishi belgilangan bo‘lib, bugungi kunda tanlov savdolarini o‘tkazish ishlari davom ettirilmoqda.

Joriy yilda xam aholi bandligini ta‘minlash masalasi eng muhim vazifamiz bo‘lib qoladi.

2016 yilda yangi ish o‘rinlarini yaratish dasturiga asosan, jami 500 ta (shundan xotin-qizlar uchun 79 ta) yangi ish o‘rinlari yaratish muljallanmoqda.

Tuman kollejini joriy yilda 73 nafar bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo‘yicha 27 ta sub‘ektlar bilan turt tomonlama shartnomalar to‘liq tuzildi va oldimizda bitiruvchilarni tuliq ish bilan ta‘minlash vazifasi turibdi.

Tumanda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, elektron xujjat aylanish tizimlaridan foydalanish samaradorligini

oshirish, shuningdek aholi va tadbirkorlik sub'ektlariga ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlarining sifatini yanada oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Muxtaram yurtboshimiz tomonidan 2016 yil "Sog'lom ona va bola yili" deb e'lon qilinganliklari avvalambor, halqimizning asriy an'alaridan kelib chiqqan xolda, faqatgina sog'lom onadan sog'lom bola to'g'ilishiga, ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'lishiga qat'iy ishonishning yana bir amaliy ifodasi bo'lib, bu ettinchi ustuvor vazifa etib belgilandi.

«Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to'g'risida

Xalqimizning asriy an'alarini hisobga olib, «Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab etilishiga va qaror topishiga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar amalga oshirish bo'yicha olib borilayotgan ishlarning darajasini yanada yuksaltirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-ehтиrom muhitini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog'lom va ahil bo'lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadida, shuningdek 2016 yil O'zbekiston Respublikasida «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilingan-ligi munosabati bilan:

«Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi ilovaga* muvofiq tarkibda tashkil etilsin.

1.1.Mavzuning dolzarbligi.

Mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarni chetdan keltirilayotganligi yurtimiz aholisini sifatli gusht va sut mahsulotlariga bo'lgan talablarni qondirishga qaratilgandir. Bunday yuqori mahsuldor sigirlarda uchraydigan tuyoq-bo'g'im kasalliklari ko'p uchrashi bilan qoramolchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarda oyoq

bo'g'inlarida va tuyoqning turli yallig'lanishlarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan bir qanchasi mavjuddir, jumladan: Chetdan keltirilgan hayvonlarni saqlash va oziqlantirish sharoitlariga etarli darajada e'tibor qaratmaganligi, hayvonlar saqlanadigan joyning o'ta namligi hamda tuyoqlarga vaqtida to'g'ri ishlov berilmasligi oqibatida qoramollarda tuyoq bo'g'in kasalliklarini ko'p uchrashiga olib kelmoqda. Shuningdek paxtani qayta ishlash natijasida olinadigan oziqalar tarkibidagi gossipol bo'lib, u organizmda toksiko-allergik holatni yuzaga keltiradi, natijada moddalar almashinuvi jarayonini buzilishiga, immunobiologik xususiyatlarni pasayishiga, oqibatda bo'g'indagi sinovial parda va uning atrofidagi to'qimalaridagi kuchsiz shikastlanishlar ham yallig'lanish jarayonlarining rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda kasallikni uchrash darajasini, etiologiyasini, iqtisodiy zararini, diagnostikasini o'rganish ishning asosiy maqsadini tashkil etadi.

1. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda hamda fermer xo'jaliklari sharoitida tuyoq-bo'g'im kasalliklarini uchrash darajasini, klinik belgilarini o'rganish.

2. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda tuyoq-bo'g'in kasalliklarini keltirib chiqaruvchi mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'lgan etiologik omillarni o'rganish.

3. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda tuyoq-bo'g'in kasalliklarini davolashda samarali davolash usullarini ishlab chiqqan holda kasallikni oldini olish muhim ilmiy amaliy ahamiyatga ega.

II . ADABIYOTLAR SHARHI

2.1. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda tuyuq-bo'g'in kasalliklarini etiologiyasi va klinik o'zgarishlari

Keyingi yillarda yurtimizga xorij mamlakatlaridan ko'plab mahsuldorligi yuqori bo'lgan zotli mollar keltirilib, mas'uliyati cheklangan va fermer xo'jaliklarga tarqatildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xorijdan keltirilgan naslli chorva mollarini sog'lom saqlash, ulardan sifatli va ekologik toza mahsulot olish uchun bizning mintaqamizga va zoogigienik talablarga mos molxona, yayrash maydonchalari kirish joylarida dezobarerlar bo'lishi kerak.

Xorij mamlakatlaridan olib kelingan mahsuldorligi yuqori bo'lgan g'unojinlarning katta sonini golshtin-friz va segmental zoti tashkil etadi. Mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida ular uchun maxsus bog'lovsiz boqish uchun komplekslar qurilgan. Bu sigirlar yuqori sut mahsuldorligiga ega bo'lib, sut mahsulotini ko'paytirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ko'pchilik fermer va mas'uliyati cheklangan xo'jaliklarda mahsuldorligi Yuqori bo'lgan hayvonlarda tuyuq-bo'g'in kasalliklarini jiddiy muammo bo'lib kelmoqda. Shuning uchun ham tuyuq-bo'g'im kasalligini uchrash darajasi aniqlash, klinik belgilari davolash va oldini olish chora-tadbirlarini izlab topish dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Xorij adabiyotlarida ta'kidlanishicha, mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarda keyingi 30 yil ichida oyoqlarning distal qismi kasalliklari asosiy muammolaridan biri bo'lib, oqibatda kasallangan sigirlarning 50 % muddatidan oldin so'yilmoqda va bu xo'jaliklar uchun katta iqtisodiy zarar keltirmoqda.

Mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda tuyuq- bo'g'imlarining shikastlanishi jami oyoq kasalliklarining 50-60 % ni yoki jarroxlik patologiyasining 14-17 % ni tashkil etadi (A.F.Burdenyuk, G.S.Kuznetsov , 1976). Keyingi yillarda oyoq kasalliklari oqibatida muddatidan oldin hisobdan chiqariladigan sigirlar 4-15,3 % ni tashkil etmoqda (Ulimbashev M. B.,2007). Rossiya va boshqa xorij mamlakatlarida yirik shoxli hayvonlarda oyoq

kasalliklarining ancha ko'payganligi qayd etilmoqda (Distl, Koorn D. S., Mc Daniel B. et al.). Shvetsiya va Angliyada 74 % va 55 % hayvonlarning oyoq kasalliklari oqibatida so'yilishi qayd qilingan (Politiek R.D, Distl O., Fjeldaas T. et al.,1990; Bowey R.,1993). Ayrim mualliflar (Veremey E.I., Jurba V.A., 2003) ayrim Evropa mamlakatlarida hayvonlarning hisobdan chiqarilishining asosiy sabablaridan biri oyoq kasalliklari ekanligini ta'kidlaydilar. Niderlandiyada oyoq kasalliklari mastit va bepushtlikdan keyin uchinchi o'rinda turadi. Irlandiya chorvachiligida ilg'or texnologiyaning kiritilishi hayvonlar o'rtasida oqsashning (54 %) oshishiga sabab bo'ldi. Shvetsiyada oqsash oqibatida 4 %, Germaniyada 3 % va Niderlandiyada 2 % dan ortiq sut beradigan sigirlar hisobdan chiqarilmoqda. Keyingi 10-15 yil ichida Janubiy Ural, Rossiyaning Chelyabinsk, Kurgan viloyatlari, Qozog'istonning Kustanay viloyati ferma va komplekslarida sigir sonining kamayishiga qaramasdan tuyuq shikastlanishi 20-50 % ga oshganligi qayd qilindi (V.A.Molokanov i dr.,2001). I.S. Panko, V.A. Lukyanov (2003) ma'lumoti bo'yicha har uchta sigirdan bittasi tuyuq deformatsiyasi yoki oqsash oqibatida hisobdan chiqariladi. Tuyuq deformatsiyasi va uning kasalligi oqibatida har kunlik sut 3,3-4,5 kg kamayadi va hayvonlarning umumiy ahvoli yomonlashadi (I.S.Panko, V. A.va boshq. 2003).

Veterinar ortopediya jarrohlikning katta va muhim bo'limi hisoblanadi. U qishloq xo'jalik hayvonlari barmoq va xususan tuyuq sohasidagi kasalliklar etiologiyasini, diagnostikasini, davolash va oldini olish chora - tadbirlarini, tuyuqlarni taqalashni o'rganadi. Veterinar ortopediya mustaqil bo'limga ajratilishi tuyuqlarning anatomo-fiziologik xususiyatlari va ular nisbatan tez-tez zararlanishidan kelib chiqadigan tuyuq patologiyasining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Tuyuq kasalliklari katta va kichik chorvachilik xo'jaliklarda sezilarli ravishda tarqalishi tufayli, veterinar ortopediya boshqa klinik fanlar orasida muhim o'rinni egallaydi.

Bir tuyuqli hayvonlar, jumladan otlar xozirgi kunda o'zining xalq xo'jaligidagi va ayniqsa tog' va cho'l mintaqalarida mohiyatini yo'qotmaganligi

tufayli, zamonaviy veterinar ortopediya mahsuldor hayvonlarning tuyoq kasalliklari bilan bir qatorda, bir tuyoqli hayvonlar tuyoqlari zararlanishining patologiyasini, davolashni va oldini olishni o'rganadi. Bunda u tuyoqlarni parvarishlashga, to'g'ri taqalashga shu jumladan davolovchi ya'ni ortopedik taqalashga aloxida e'tiborni qaratadi. Bu tadbirlarda yo'l qo'yilgan barcha hatolar hayvon mahsuldorligi, nasl berishi va ishchanligining pasayishi yoki umuman yo'qolishiga olib keladigan tuyoq kasalliklar rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Barmoq va xususan tuyoq kasalliklarini o'rganishda zamonaviy veterinar ortopediya nafaqat hayvonlar yashaydigan mintaqaviy xususiyatlarni, balki ularni saqlash usullarini (bog'lovli, bog'lovsiz va yaylov sharoitida saqlanish) hamda chorvachilikning texnologiyasini hisobga oladi, chunki kasalliklarning o'ziga xosligi odatda ko'rsatib o'tilgan omillar bilan tig'iz bog'liqdir.

Tuyoq patologiyalarini hamda ularni jarrohlik yo'li bilan davolash uchun tavsiya etiladigan usullarni yaxshiroq tushunish maqsadida, talaba yozma anatomiya bilan birgalikda qishloq xo'jalik hayvonlar barmoqlarining topografik anatomiyasi to'g'risidagi tushunchaga ega bo'lishi kerak, chunki aksariyat tuyoq kasalliklarida nafaqat alohida anatomik elementlar balki atrof to'qimalar ham zararlanadi. Aytib o'tilganlarga asoslanib, biz bir nechta qishloq xo'jalik hayvonlar barmoqlari anatomik topografiyasining qisqa ta'rifini keltirdik. Har xil turga mansub hayvonlar tuyoqlarining patologiyasi umumlashtirib berilgan joylarda etiologiya, patogenez, klinik ko'rinish va ortopedik davolashning qisqacha tur xususiyatlari ko'rsatib o'tilgan.

Adabiyotlardan va amaliy tadbirlardan olingan ma'lumotlarning tahlili bo'yicha, qishloq xo'jalik hayvonlar tuyoqlarining zararlanishi oyoqlarning boshqa kasalliklari orasida 50–60 % ni yoki barcha jarrohlik patologiyaning 14–17 % ni tashkil qiladi.

Yiirngli pododermatit kasalliklari tufayli xo'jaliklardagi hayvonlardan mahsulotni kutilgandan kam oladi, kasal hayvonlarni saqlash va davolash uchun ko'p mablag' sarflaydi va natijada katta iqtisodiy zarar ko'radilar.

Chet el tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra, tuyoqlarning yiringsiz va yiringli kasalliklarga chalingan sigirlardan laktatsiya davrida o'rtacha 1000 kg sut kam olinadi, ular 100 kg gacha tirik massasini yo'qotadi, davolashga esa 1000 marka sarflanadi.

U yoki bu xo'jaliklarda saqlanadigan hayvonlar orasida tuyoq –bo'g'im kasalliklarining tarqalishi nafaqat g'ayritabiiy, yomon saqlash sharoitlari (chorvachilik binolaridagi yuqori namlik va harorat, pollarning noto'g'ri konstruksiyasi va ifloslanishi, yaylovning notekisligi va turli o'tkir narsalar bilan ifloslanishi va shunga o'xshashlar) balki tuyoqlar tegishli va doimiy parvarish qilinmasligi bilan bog'liq. Bunday holatlarda hayvonning tuyoqlari asta – sekin deformatsiyaga uchraydi va uzunchoq, patologik shaklni egallaydi. Tuyoqlarning bunday patologik shaklida ular bir maromda ishqalanmaydi, natijada pay – paycha apparati cho'ziladi va nixoyat yallig'lanish jarayoni rivojlanadi, og'riq va oqsash paydo bo'ladi. Bunday tuyoqlarga ega sigirlar 10 % gacha sut, bo'rdoqiga boqiladigan buqalar esa 20–30 kg gacha go'sht mahsuldorligini yo'qotadi.

A.A. Pankov ta'qidlashicha, tuyoqlar o'z vaqtida kirqilganda laktatsiyaning 24 kuni ichida har bir qo'ydan nazoratdagilarga nisbatan o'rtacha 1,8 kg sut va 1,07 kg go'sht ko'p olingan.

Westfalia – Surge kompaniyaning mutaxassisi A. Kulagin tuyoq kasalliklari katta chorvachilik xo'jaliklardagi muammolar orasida mastit va akusher – ginekologik kasalliklardan keyin uchinchi o'rinda turadi deb hisoblaydi. Uning hisob – kitobi bo'yicha, tuyoq-bo'g'im kasalliklari har bir bosh sigirga nisbatan bir yilga 4000–9000 rubl iqtisodiy zarar keltiradi

(<http://agro-profi.ru/login/archive/32>).

Bog'lovda va bog'lovchisiz har xil sharoitlar pollarning tuzilishi quruqda va namda saqlash harkatning chegaralanishi hayvonlarning boqishning o'ziga xos xususiyatlari xuranda va vitamin beda qattiq lavlagi pichan miqdorini kamayib paxta chiqindisidan olinadigan ozuqalar g'o'zapoya sheluxa, kunjara miqdorini

oshib ketishi kabi sabablar bo'lishi kasalliklari salmog'ini yanada oshirib ularni kelib chiqish sabablari kechish xususiyatlarini o'zgarishiga olib keldi.

Jumxuriyatimizda bu kasalliklarni ayrimlari yuqorida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra yoppasiga uchrab, og'ir kechadi, davolash muvozzantlarini qiyinlashtiradi va katta iqtisodiy zarar keltiradi. Ayrim hollarda bug'in kasalliklari 9 – 11% ni tashkil qiladi. Hayvonlarni muddatdan ilgari hisobdan chiqarishga ba'zan esa ularning o'lishiga sabab bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki bug'in kasalliklariga barmoqlarda joylashgan bug'inlar mexanik shikastlanishlar tufayli ko'proq bug'in kasalliklari kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Veterinariya arterologiya muammolari ko'pdan urganilib kelishiga qaramay hali ko'p tmonlari to'liq urganilmagan kasalliklarni kelib chiqishi rivojlanishini aniqlash davolash va oldini olish ilmiy asoslangan.

Bo'g'in kasalliklarini amaliy va ilmiy o'rganish natijasida, turli mualliflar bu kasalliklarni turi variantidagi tasniflashda K.I.Shakalov

(1952) taklifi to'g'riroq bo'lsada, u ham kasalliklarni turi to'pdan bo'lganligi tufayli to'la yorita olmasligi ko'rinib turibdi. shunday bo'lishiga qaramasdan bu tasnif kasalliklarni kelib chiqishi kasallikka chalingan to'qimalarning morfologik o'zgarishlarini kasallik belgilarini aniqroq ko'rsatib beradi. muallif bo'g'in kasalliklarini 5 ta asosiy guruhga bo'lib o'rganishni taklif qiladi.

1. O'tkir va surunkali kechuvchi aspetik va septik yopiq travmatik bo'g'in kasalliklari lat geportirozlar, cho'zilishlar, chiqishlar, sinovitlar va kontrakturalar.

2. Tuyuq teri asosini yiringli va yiringsiz pododermatitlari.

3. Bo'g'inlarning yiringsiz kasalliklari sinovit, artrit, osteoartrit, chiruvchi artrit.

4. O'tkir va surunkali kechuvchi xususiy infeksiy, noinfeksiy allergik bug'in kasalliklari.

5. Ekssudatsiz surunkali kechuvchi bug'in kasalliklari deformatsiyalashuvchi osteoridit, suyaklashib boruvchi pereoridit, artroz, ankiloz (K.I.Shakalovva boshqlar, 1981 y).

Kasallikning og'ir formasida esa oqsash va og'riq tez yo'qoladi bir necha soatdan keyin esa og'riq shishadi (giportiroz) bir sutkadan keyin esa katta shish paydo bo'ladi. Tinch holatda hayvon oyog'ini yarim bukilgan holatda ushlab kutarib turadi bosimni qiyinlashtiradi. Surunkali kechishlarda tashxis hayvonning qattiq tekshirishlar albatta kasal hayvon to'g'risida akonmez olish asosida aniklanadi.

Oqibati bo'g'in cho'zilishlari og'ir formasida ehtiyot bo'lishlari zarur shuni alohida ta'kidlash zarurki kasallikni qaytalanishi kasal hayvondan muddatdan oldin foydalanish tufayli kasallik surunkali kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Davolash: davolash bug'inini cho'zilish darajasida va to'qimalarni kelib chiqishiga bog'liq bo'ladi.

Davolashni 3 – 4 kundan boshlab issiq muolajalar qizdiruvchi kompressor parafin soloks lampasi bilan qizdirish massasi og'riqsizlantiruvchi va surdiruvchi mol ham surib massash qilish tavsiya qilinadi. Odatda 2 – haftadan keyin hayvon sog'ayadi. Kasallikning og'ir kechishi bug'inning qattiq cho'zilishlarida davolashning birinchi kunlarida qisib turuvchi bog'ich kuchayib Yuqorida ko'rsatilgan novakain ishlatiladi.

Bir sutkadan keyin bug'inni tashkil qiluvchi bir – biriga maksimal 2 haftagacha gips bog'ich quyiladi. Gips bog'lovich echimidan so'ng passiv xarakat qilina boshlaydi.

Bo'g'inlarni lat eyishi (sontusa articula). Hayvonlarda lat eyishlar asosan mexanik shikastlanishlarni bo'g'inlarga bevosita va bilvosita ta'siri natijasida ayniqsa uning yumshoq to'qimalarini bug'in qobig'i bog'lanishlari va atrof to'qimalarini ko'proq uchraydi. Kuchli lat eyishlarda esa bo'g'inlarni tashkil qiluvchi suyak epifizlari va bo'g'in tog'ayi to'qimalarining shikastlanishi kuzatiladi.

Bug'inlarda lat eyishlarni xarakterli belgilaridan asosiysi, bo'g'in bo'shlig'ida qon to'planishini tez va kattalashib boruvchi (geportiroz hashostrosis) bu asosan bug'inlarni oziqlantiruvchi qon tomirlar birligini buzilish ishlarida esa

geporologik gipotez kasalligida (faqat itlarda) uchraydi. Qon tomirlardan oqib tushgan qon bo'g'in bo'shlig'ida to'planib, sinoval suyuqligi bilan aralashib ketadi. Bug'inning fiyroz qiyan va atrof yumshok biriktiruvchi siplar ichiga singib ketadi va turli kattalikdagi qontalashlar hosil qiladi. Sinovial suyuqligi bilan aralashgan qon tez ivimaydi. Uning ko'p qismi suyuq holatda bo'ladi. Qonning uyagan qismini esa erkin xolda suzib yuradi, ularning bir qismi surilib ketadi qon fermentlari ta'sirida) ayrimlari esa biriktiruvchi to'qima vositasida o'sib bug'inning sinovial qavatini qalinlashtiradi. Natijada qonning qismining ayrimlari erkin holda sinovial suyuqlikda suzib yuruvchi bug'inlarni tashkil qiluvchi boshqa anatomik elementlarni lat eyishi natijasida pereioitit kasallanishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, qishloq xo'jalik hayvonlarning yuqumsiz kasalliklari akusher ginekologik va xirurgik kasalliklar bilan birgalikda barcha kasalliklarining o'rtacha 94-96 foizini tashkil etadi. Bu kasalliklar paytida iqtisodiy zarar mahsuldorlikning keskin kamayishi, hayvonlarni barvaqt podadan chiqarish, majburiy so'yish va hayvonlarning o'limi hisobiga kuzatiladi.

Podani sog'lomlashtirish va hayvonlar mahsuldorligini oshirishda barcha yuqumsiz kasalliklarning 40 foizidan ko'prog'ini tashkil etadigan xirurgik kasalliklarni samarali davolash, oldini olish katta ahamiyatga ega. Bu kasalliklarning asosiy qismini oyoqlarning turli kasalliklari tashkil etadi. (K.I.Shakalov, 1981y.)

Xirurgik kasalliklar orasida oyoqlar distal qismi bo'g'imlarning kasalliklari bo'rdoqichilik va sutchilik xo'jaliklarida keng tarqalgan (K.I.Shakalov, 1981, X.B.Niyozov va boshqalar 1996, N.Sh.Davlatov va boshqalar 1996) bo'lib, bu patologiya kelib chiqishiga asosan hayvonlarni saqlash va oziqlantirishdagi etishmovchiliklar (hayvonlarni tiqis saqlash, matsion va to'shamalarning etishmasligi, pollarning notekisligi va ifloslanganligi, tuyoqlarni o'z vaqtida tozalab va kesib turmaslik, terining matseratsiyasi), ratsionlarning oqsillar, uglevodlar, vitaminlar va mineral moddalar bo'yicha nomutanosibligi sabab bo'ladi.

A.Ya.Batrakov (1980) ma'lumotiga ko'ra oyoq kasalliklari sutchilik xo'jaliklarida sog'in sigirlarning barcha yuqumsiz kasalliklarining 20 foizini tashkil etadi.

Respublikamiz xo'jaliklarida, ayniqsa yilqichilik fermer xo'jaliklarida hayvonlar orasida oyoq bo'g'imlarining yiringsiz yallig'lanishlari keng tarqalgan bo'lib, xo'jaliklarga katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Masalan, otlarning yiringsiz artritlar bilan kasallanishi 6 foizni tashkil etib, bir bosh hisobiga tana vazni ortishining 25-35 kilogrammga, ularning o'sish jadalligining 28-30 foizga kamayishi kuzatiladi.

N.Sh.Davlatov va boshqalarning (1996) ma'lumotlariga ko'ra, xo'jaliklarda yirik shoxli hayvonlarning 20 foizdan ko'prog'ida bo'g'imlarning yiringsiz xarakterdagi patologiyasi uchraydi va katta iqtisodiy zarar keltiradi. Shunga qaramasdan bu patologiyaning tarqalishi, keltirib chiqaruvchi omillar, rivojlanish xususiyatlari, diagnostikasi, davolash va oldini olish usullari to'lig'icha o'rganilmagan.

Organizmga patogen ta'sir etishi va jarohatning turiga ko'ra travmalar turlicha bo'lishi mumkin. K.I.Shakalov. (1987) ma'lumotlariga ko'ra, hayotiy muhim to'qima va a'zolarining shikastlanishi ko'p mikdorda qon yo'qotish bilan rivojlanib, o'tkir holda kechadigan travmalar hayvonning hayoti uchun xavf tug'dirishi mumkin. To'qimalarning keng ko'lamdagi yopiq shikastlanishlari va to'qimalarning parchalanishidan xosil bo'lgan zaxarli moddalarning qonga jadal so'rilishi natijasida, hayvonlarning travmatik zararlanishi vujudga keladi. Mexanik omillarning o'ta kuchli ta'siri natijasida xosil bo'ladigan travmalar oqibatida, jigar, oshqozon, ichaklar, siydik pufagi va a'zolari yorilib ketishi mumkin, xamda shikastlangan to'qimalarga patogen mikroorganizmlarning tushishi natijasida, ko'plab hollarda travmalarning asorati sifatida abscess, flegmonalar, nekrobakterioz, aktinomikoz kabi patologik jarayonlar rivojlanishi mumkin.

Ko'pincha, bo'g'im kasalliklarining rivojlanishida asosiy etiologik omillar o'tmas jismlarning urilishi natijasida kelib chiqqan yopiq turdagi mexanik shikastlanishlar hisoblanadi (I.Ya.Tixonin, M.A.Feldshteyn, 1971).

Bo'g'imlarning jarohatlanishlari kechish darajasi, davolash jarayonining murakkabligi va oqibatining turli xilda bo'lishiga qarab, bir-biridan farqlanadi (I.V.Shabolaev,1989).

Bo'g'imlarning shikastlanishidan keyin ularda "postravmatik", yallig'lanish jarayoni jadal rivojlanib, kasallikning kechishini sezilarli darajada og'irlashtiradi va ko'p hollarda uning oqibatini belgilab beradi M.A.Teresning (1985) fikriga ko'ra, sinovial bo'shliqlar patologiyasida asosiy o'zgarish yallig'lanish paytida sinovial suyuqliklarning me'yorda xosil bo'lishidan farq qilishi hisoblanadi.

Yirik va mayda qon tomirlarning jarohatlanishi bilan kechadigan bo'g'imlarning kuchli shikastlanishlarida yallig'lanish jarayoni bo'g'im kapsulasining hamma qavatlarida, eng avvalo uning sinovial qobig'ida

K.I.Shakalovva boshqalar (1987), I.S.Pankolarning, (1982), ma'lumotlariga ko'ra, bo'g'imlarning yiringsiz yallig'lanishlari turli sabablarga ko'ra, masalan, sanchilgan jarohatlar, bo'g'im atrofidagi to'qimalarning mexanik shikastlanishi, periartikulyar to'qimalar, sinovial xalta shilliq pardasi va pay qinlari orqali yiringsiz yallig'lanish jarayonlarining bo'g'im to'qimalariga o'tishi, Shuningdek plevrit, endometrit, paraartrit kabi kasalliklarda metastatik yo'l bilan o'tishi oqibatida rivojlanadi. I.S.Pankoning (1982) ta'kidlashicha, kasallikning patogenezi o'ziga xos xususiyatlarga ega, ya'ni bo'g'imlarning yallig'lanishining bosqichlarsiz o'tishi, bir vaqtda barcha bo'g'im to'qimalarining shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun yiringsiz sinovit, kapsulyar flegmona va shu kabi kasalliklarni bir-biridan ajratish qiyin bo'lib, kasallikka bo'g'im tog'aylari hamda yonma-yon joylashgan suyaklar tarkibining buzilishi bilan o'tadigan osteoartrit va paraartrit deb tashxis qo'yiladi.

Ko'pchilik mualliflarning (G.S.Kuznetsov, 1980, K.I.Shakalov, 1987;) ma'lumotlari bo'yicha, bo'g'imlarning yiringli yallig'lanishlarida stafilokokklar va streptokokklarning ustunligi bilan xarakterlanuvchi aralash mikrofloralar, Shuningdek, ichak tayoqchalari, protey va ko'k yiring tayoqchalari ajratiladi.

M.V.Plaxotin (1977) ma'lumotlariga ko'ra, bo'g'imlarning yiringsiz yallig'lanishlarida kasallikning kechish hususiyatlariga qarab tashhis qo'yiladi, ya'ni: kasallikka xos bo'lgan mahalliy simptomlarning namoyon bo'lishi (kuchli og'riq, oqsoqlanish, bo'g'imning hajmiga yiriklashishi va shishi, yumshoq to'qimalarning taranglashishi, bo'g'im konturining o'zgarishi) va umumiy intoksikatsiya belgilari va ularning namoyon bo'lishi darajasiga ko'ra tashxis qo'yiladi.

Bo'g'imlarning yiringli yallig'lanishlarida punktatni bakteriologik va sitologik tekshirish natijalari katta ahamiyat kasb etadi. Qondagi gemoglobin va eritrotsitlar miqdorining kamayishi, eritrotsitlar cho'kishi tezligining (ECHT) oshishi yiringsiz asoratlar rivojlanayotganidan dalolat beradi (K.Dale, 1987).

I.S.Pankoning (1982) ta'kidlashicha, yirik shoxli hayvonlarda flegmonalar paytidagi yallig'lanish reaksiyasi otlardagiga nisbatan kuchsizroq namoyon bo'ladi. Otlar uchun xos bo'lgan tana haroratining ko'tarilishi, qoramollarda ko'p hollarda kuzatilmaslighi ham mumkin.

Qoramollarda tana harorati me'yorlar atrofida ($39-39,5^{\circ}\text{S}$) bo'lib, jarohat kesilganda undan yiringsiz-fibrinoz ekssudat ajraladi.

A.Ya.Batrakov (1980) qoramollarda yallig'lanish jarayonlari paytidagi leykotsitar reaksiyalarning xarakterli o'ziga xosliklarini kuzatish bilan shunday hulosaga kelganki, bu reaksiyaning darajasiga qarab yallig'lanish jarayon kechishi va organizm himoya kuchlarining holati to'g'risida hulosasi qilish mumkin.

A.I.Kalashnik (1982) ta'kidlaydiki, organizmning bo'g'imlardagi yallig'lanish jarayoniga nisbatan reaksiyasi qator omillarga, ya'ni patologik jarayonning shakli va tarqalish darajasi, uning joylashishi, bo'g'imning va uning anatomik tuzilmalarining o'ziga xos xususiyatlari, infeksiyaning turi, virulentligi va boshqa omillarga bog'liq bo'ladi.

M.G.Astapenko (1984) ma'lumotlarga ko'ra, qonni biokimyoviy ko'rsatkichlari bo'yicha tekshirishda leykotsitoz, neytrofiliya, ECHR tezlashishi, disproteinemiyaning kuzatilishi bo'g'imlarning yiringsiz yallig'lanishlariga xos

belgilar hisoblanadi. U.Ya.Bogdanovich (1981) ma'lumotiga ko'ra, odamlarda revmatoid artrit paytida laborator tekshirish ma'lumotlari nospetsefik bo'lib, revmatoid artritning boshlang'ich bosqichlaridayoq ECHT ning tezlashishi, fibrinogen, alfa – globulinlar, qonning S – reaktiv oqsillari darajasining ortishi hamda gemoglobin miqdorining kamayishi kuzatiladi.

V.V.Gorbachevning (1973) ta'kidlashicha, revmatoid artritning rivojlanishida immun komplekslarning qondagi sirkulyasiyasi tufayli sinovial parda va boshqa a'zolarida vaskulitning rivojlanishi xarakterli bo'ladi. Oqibatda doimiy artrit va bo'g'imlar destruksiya hamda ko'p hollarda biriktiruvchi to'qimaning o'sishi tomirlarning jarohatlanishiga olib keladi. Antigenlar sifatida bakterial, virusli va hatto parazitlar xarakterdagi antigenlar bo'lishi mumkin. Kasallik ko'pincha doimiy xarakterdagi yallig'lanish bilan kechib, oyoqlardagi barcha bo'g'imlar jarohatlanishi mumkin. Ko'pincha patologik jarayon kaft, (bilak, tirsak va bilaguzuk), falangalararo bo'g'imlarida rivojlanadi. Jarohatlangan bo'g'imda to'qimalar gipertermiyasi, og'riq, bo'g'imning shishi kuzatiladi.

U.Ya.Bogdanovich (1981) ma'lumotiga ko'ra, osteoartroz bo'g'imlarning kasalligi bo'lib, bunda degenerativ o'zgarishlar bo'g'imning tog'ay moddasida kuzatiladi. Osteoartrozning artritdan farqi shundan iboratki, unda yallig'lanish mahsuloti doimiy bo'lmaydi va yallig'lanish jarayoni yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Etiologiyasiga ko'ra birlamchi (ideopatik) va ikkilamchi osteoartrozlar farqlanadi. Ikkilamchi osteoartrozlar suyak va bo'g'imlar displaziyasi, bo'g'imlar travmasi, endokrin (gipotireoz), metabolitik (oxranoz) kabi etiologik omillar va kasalliklar oqibatida rivojlanadi. Bu omillarning kuzatilmasligi birlamchi osteoartrozdan dalolat beradi.

B.A.Semenov (1981) osteoartrozning ikkala turi ham deyarli bir xil ko'rinishda rivojlanadi. Tog'ayning birlamchi degeneratsiyasi bo'g'imning boshqa to'qimalarining ham jarohatlanishiga sabab bo'ladi, subxondral suyakning qalinlashishi (osteoskleroz), sinovial qobiqda giperemiya, o'choqli yallig'lanish (sinovit) va keyinchalik fibroz rivojlanadi.

B.S.Semenov (1981) ning ta'kidlashicha, ko'pincha osteoartroz barmoq, tizza, quymich – son bo'g'imlari hamda kaft bo'g'imlarida rivojlanib, harakatlanishda og'riq, bo'g'im harakatining chegaralanishi, uning qalinlashishi va deformatsiyasi, tashqaridan qalganda bursitga xos belgilar kuzatiladi. Osteoartrozda qon va siydikda xarakterli o'zgarishlar kuzatilmaydi.

V.M.Chepoyning (1990) ta'kidlashicha, bo'g'im atrof to'qimasining kasalliklari – paylarning yallig'lanishi (tendinit va tendovaginitlar), bog'lamlarining (desmondit), bu elementlarning suyaklarga birikish joyining (entezopatiya), sinovial xaltaning (bursitlar), aponevroz va fassiyalarning (aponevrozitlar, fassitlar) yallig'lanishlari bo'lib, yallig'lanish yoki degenerativ xarakterga ega bo'ladi, travmalar yoki jarohatlanishga bog'liq bo'lmaydi. Bu kasalliklar oqibatida bo'g'imning harakati chegaralanadi va og'riqli bo'ladi.

V.V.Mosinning (1975) ma'lumotiga ko'ra, mikrokristall artritlar – bo'g'imlarda turli xil tarkibdagi mikrokristallarning to'planishi bilan o'tadigan kasallik bo'lib, bir guruh kasalliklarni o'z ichiga oladi. Bu kasalliklarga xos umumiy belgilar shundan iboratki, artritlar bir yoki bir necha bo'g'imlarda to'satdan paydo bo'ladi. Ko'pincha mikrokristal artritlar uratlarning kristallari hisobiga (podagra) va kalsiy pirofosfatlar hisobiga (pirofosfatli artropatiya) rivojlanadi. Bu kristallarni bo'g'im to'qimasi ko'pincha sinovial suyuqlik tarkibida topilishi kasalliklarning diagnostikasida asosiy mezon hisoblanadi.

V.V.Mosinning (1975) ma'lum qilishicha, pirofosfat kalsiy kristallari ko'pincha tog'aylarda to'planadi, ularning bo'g'im bo'shliqlariga tushishi uning yallig'lanishiga sabab bo'ladi. Kasallik mono yoki oligoartrit ko'rinishida rivojlanib, ko'pincha tizza bo'g'imi jarohatlanadi. Kechishiga ko'ra podagra o'xshaganligi uchun kasallikni ko'pincha «psevdo podagra» deb ham atashadi. Pirofosfatli artropatiya unchalik kuchli bo'lmagan, lekin doimiy og'riq bilan osteoartrozga o'xshash kechganligi uchun «Psevdo osteoartroz» deb ham ataladi.

V.V.Mosinning (1975) ta'kidlashicha, podagra – bo'g'imlarda va boshqa to'qimalarda purinli asoslarni va siydik kislotalari metabolizmining buzilishidan xosil bo'ladigan uratlar kristallarining to'planib qolishi oqibatidir.

Turli asosli moddalar almashinuvining buzilishlariga bu jarayonlarni boshqarib turuvchi fermentlar faolligining tug'ma yoki orttirilgan etishmovchiliklari sabab bo'ladi. Podagraning rivojlanishida qondagi siydik kislotasi miqdorining ko'payishi asosiy omil hisoblanadi. Bunga purin asosli moddalar parchalanishining ko'payishi yoki buyraklar orqali siydik kislotalarining ekskretsiyasining yomonlashuvi sabab bo'ladi. Mikrokrystallarning bo'g'im bo'shliqlariga tushib turishi o'tkir yallig'lanish reaksiyasiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagi adabiyotlar ma'lumotlarini tahlil qilish Shuni ko'rsatadiki, ular bo'g'im kasalliklarning sabablarini, rivojlanish xususiyatlarini, Shuningdek bizning hududda yirik shoxli hayvonlar orasida bu patologiyaaning kechish xususiyatlarini to'liq ochib bermaydi.

Mexanik jarohatlanishlar va boshqa xirurgik kasalliklar paytidagi asoratlarning oldini olishda birinchi profilaktik davolashning ahamiyati katta.

I.A.Kalashnikning (1988) ta'kidlashicha, hayvonlarni guruh usulida boqishda dastlabki rivojlanish bosqichlarida artritlar kam aniqlanadi. Ularni barvaqt aniqlashning imkoni bo'lganda, davolanishi juda qiyin hisoblangan bo'g'imlar va to'qimalarda surunkali kechadigan yiringsiz yallig'lanishlarning oldini olishga imkon tug'ilar edi, odatda bunday turdagi yallig'lanishlar kam davolanadi.

Bo'g'imlarning yiringsiz yallig'lanishlari juda qiyin davolanadi, bo'g'im strukturasining butunligini saqlab qolish va infeksiyani tugatishning imkoniyati bo'lsada, bo'g'im bo'shlig'ida biriktiruvchi to'qimalarning o'sishi tufayli a'zoning funksiyasini to'liq tiklab bo'lmaydi.

M.V.Plaxotinning (1981) ma'lumotlariga ko'ra, antibiotiklarni va boshqa preparatlarni, shu jumladan stimullovchi terapiya vositalarini qo'llash qaysi bir

darajada sog'ayishni ta'minlasada, bo'g'imlar funksiyasining to'liq tiklanishini kafolatlamaydi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining bo'g'im kasalliklarida samarali davolash va oldini olish usullari o'z vaqtida jarrohlik muolajasini o'tkazish, medikamentoz davolash, antibiotik va to'qima preparatlarini qo'llash, fizioterapiya vositalarini qo'llash va parxez oziqlantirishdan iborat bo'lishi kerak.

Ko'p hollarda oyoqlardagi artritlar va boshqa yallig'lanish jarayonlarini davolashda medikamentoz vositalardan kortikosteroidlar qo'llaniladi.

Yiringli sinovitlarni gidrokartizon preparatidan 0,3-0,4 mg/kg dozada bo'g'im bo'shlig'iga 3 kunda bir marta, jami 2-3 marta yuborish bilan samarali davolashga erishilgan. Gidrokartizonni yuborishdan oldin bo'g'im bo'shlig'i novokain-antibiotik eritmasi bilan yaxshilab yuviladi. Muallif davolashning 10-12 kunlariga kelib bo'g'im funksiyalarining tiklanishini, 25 va 30-kunlarida sinovial suyuqlik tarkibining maromlashishini ta'kidlaydi. Bo'g'imlarning suyak-tog'ay elementlarida va paraartikulyar to'qimalarda yiringsiz yallig'lanish jarayonlari oqmalar xosil qilish bilan kechadi.

B.S.Semenov (1981) yiringli sinovitlar va kapsulyar flegmonalarda proteolitik fermentlar, antigistamin preparatlarni qo'llashni va antibiotiklarni 10-15 ming TB/kg dozada muskul orasiga in'eksiya qilishni tavsiya etadi.

A.V.Matveev (1968) barmoqlar qismidagi yiringli-nekrotik jarayonlarda sulfanilamid preparatlaridan foydalangan holda umumiy davolash usullarini qo'llashni lozim topadi.

K.I.Shakalovva boshqalarning (1987) ma'lumotlariga ko'ra, yiringli sinovitlarni davolashda dorivor moddalarni bo'g'im kapsulasining ichiga yuborish juda yaxshi samara berishi qayd etilgan. Bundan tashqari, proteolitik fermentlarni qo'llash natijasida yanada yaxshi samaraga erishilganligini ham qayd etish mumkin.

Bo'g'im kapsulasining ichki muhitini mikrobiologik jihatdan tekshirgandan keyin, ulardagi yiringli yallig'lanishlarni davolashda antibiotiklar, qon qo'yish,

plazma, oqsil gidrolizatlari, dezintoksikatsion vositalar, hamda novokainli qamal qilish usulini qo'llash yuqori samara beradi .

A.V.Koris (1990) qo'ylar tuyog'ining yiringli-nekrotik yallig'lanishlarini davolashda natriy sitratning 5% li eritmasi bilan stabillashtirilgan va ultrabinafsha nurlar bilan nurlantirilgan autoqonni antibiotiklar bilan birgalikda 96 soat ichida, 2 marotaba qo'llash natijasida yaxshi samaralarga erishgan.

A.Ya.Batrakov (1980) ma'lumotiga ko'ra, hayvonlarni yaylovga chiqarishdan oldin va qaytarilishi bilan albatta ularning tuyoqlarini ko'zdan kechirib, kalta qilib kesish lozim.

K.I.Shakalov(1981) va I.S.Panko va boshqalarning (1982) ta'kidlashicha, buzoqlar guruhida infraqizil, ultrabinafsha nurlarni qo'llash va aeromonizatsiya travmatizmlarni oldini olishda samarali profilaktik vositalar hisoblanadi.

Travmatizmlarni oldini olish masalasini hal etish chorvachilikda katta imkoniyatlarni echib beradi hamda aholini sut va go'sht mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshilash imkonini beradi.

Sut va go'sht mahsulotlarining isrofgarchiligini oldini olish ko'p jihatdan hayvonlarni parvarishlash, tashish va go'shtga so'yish qoidalariga rioya qilishga bog'liq. Travmatizmlarni oldini olish tadbirlari hayvonlarni ishlatish, parvarishlash va transportda tashish sharoitlarini hisobga olgan holda to'g'ri tashkil etilgandagina kutilgan samarani beradi. Profilaktik tadbirlarni kompleks ravishda amalga oshirish bilan travmatizmlarni oldini olish mumkin. Adabiyot ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, veterinariyada keng miqyosda qo'llanilib kelinayotgan davolash profilaktik vositalar va usullar turli travmatizmlarni va oyoq distal qismi bo'g'imlarining kasalliklarini, shu jumladan bo'g'imlarning yiringli yallig'lanishlarini davolash va oldini olish to'lig'icha samara bermaydi. Shuning uchun bu muammolarni hal etishning yuqori samarali usullarini ishlab chiqishga ehtiyoj tug'iladi.

2.2. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan qoramollarni tuyuq-bo'g'in kasalliklarini davolash va oldini olish

Mahsuldorligi yuqori bo'lgan qoramollarda uchraydigan tuyuq-bo'g'in kasalliklarini kekeltirib chiqaruvchi bir qancha omillar mavjud bo'lib, birinchidan tuyuqlar haddan tashqari usib ketganligi tufayli kasallik oyog'ining noto'g'ri qo'yilishida, saqlash sharoiti mos kelmasligida, vaqtida tuyuqni kesib turmasligi, turli yot jismlarni tuyuqni va bo'g'imlarni jarohatlashi natijasida, oziqa ratsiyoni to'liq qiymatli bo'lmasligi natijasida profilaktik ishlovlarni vaqtida o'tkazmasligi natijasida kelib chiqishi kuzatildi.

Juft tuyuqli hayvonlarda barmoqlararo yorig'i jarohatlari turli uchqur narsalar ta'sirida kelib chiqadi.

Tuyuq aylanasi va barmoqlararo yorig'i to'qimlarining jarohatlari ko'p hollarda qora qo'tir ostida asoratsiz bitadi. Tuyuq aylanasi teri asosining chuqur jarohatlarida tuyuq devorining patologik o'sishi kuzatiladi. Shikastlovchi omillar qayta takrorlansa jarohat o'rnida yara hosil bo'ladi. Chuqur, ifloslangan jarohatlar oqibatida bu sohada flegmona, otlarda esa yumshoq tovon tog'ayining nekrozi rivojlanadi.

Ayrim holatlarda jarohatni qon oqishidan aniqlash mumkin. Jarohat barmoqning old tomonida joylashsa kuchli oqsash paydo bo'ladi. Tuyuq aylanasiidagi jarohatlar ko'pincha ifloslanganligi sababli 2–3 kunlarda shish paydo bo'lib, jarohatdan yiring oqadi.

Barcha bo'lishi mumkin asoratlarni hisobga olgan holda davolash ishlarini ertaroq boshlash zarur. Birinchi navbatda tuyuq yaxshilab tozalanadi va jarohat atrofidagi junlar olinadi. Ifloslangan jarohat antiseptik eritmalar bilan yuviladi va tekshiriladi. Jarohat kanali tig'iz va chuqur bo'lsa uni kesib kengaytirish lozim. Jarohatdan pastroqdagi tuyuq devori yupqalashtiriladi. Tozalangan jarohat yuzasiga murakkab antiseptik kukunlar sepilib, ustiga bog'lam qo'yiladi. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012).

Jarohatlar asosan sanchilgan bo'lib, mix, uchli temir, shisha siniqlari ta'siridan kelib chiqadi.

Barcha holatlarda jarohatlar yallig'lanish bilan kechadi. Jarohatning turi, shakli, joylashganligi va mikroblar bilan ifloslanganligidan kelib chiqqan holda ular tez bitadi yoki turli og'irlikda asoratlar hosil bo'ladi.

Tuyoq kaftining jarohatida ko'p hollarda yiringsiz pododermatit rivojlanadi, ba'zan mahkam turgan mix sanchilsa tuyoq suyagining sinishi, periostiti, ostiti rivojlanadi, yumshoq tovonda esa jarohatlar flegmona bilan tugashi mumkin. Tuyoq kaftining o'rtasidagi jarohatlar barmoqni bukuvchi chuqur pay, mokisimon bursa va tuyoq bo'g'imini zararlaydi.

Jarohatlangan hayvon oqsaydi (tayanch oqsash), agar jarohatda yod jism qolmasa oqsash sekinlashadi, aks holda u kuchayadi. Tuyoqni ko'zdan kechirganda jarohatni ko'rmay qolish mumkin, ammo uni tozalagandan keyin jarohat kanali ko'rinadi. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012).

Tuyoq tozalangandan so'ng jarohatlangan joyga 5 % li yodning spirtli eritmasi bilan ishlov beriladi, yod jism olib tashlanadi, jarohat kanali voronkasimon shaklda o'yiladi va ichiga yod eritmasi yuboriladi. Jarohat atrofi surtiladi va ustidan dyogot bilan bog'lam qo'yiladi.

Tuyoq aylanasi flegmonasi tuyoq jiyagi va tuyoq aylanasi teri asosining ostida joylashgan kletchatkaning tarqalgan (diffuz) yiringsiz yallig'lanishi. Flegmona ko'pincha qayta lat eyishlar va infeksiya tushgan jarohatlarda hosil bo'ladi. Undan tashqari bu kasallik terining matseratsiyasi, tuyoq bo'g'imining yiringsiz yallig'lanishi, yiringsiz pododermatit, tuyoqning yiringsiz nekrotik jarayonlaridan kelib chiqishi mumkin. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012).

Tuyoq aylanasi kletchatkasida juda ko'p nervlar va qon tomirlar mavjud, shu tufayli u erda himoya reaksiyasi boshlanadi (seroz infiltratsiya). Jarayon o'z vaqtida davolanganda uni engil qaytarish mumkin. Lekin tuyoq aylanasi sohasidagi serozli flegmona tezda yiringsiz flegmonaga aylanish mumkinligini hisobdan chiqarmaslik lozim, chunki yumshoq to'qimalarning seroz infiltratsiyasi sababli

ular shishadi va tuyoq kapsulasiga sig'may qisiladi, natijada ularning qon bilan ta'minlanishi buziladi, nerv tolalari ta'sirlanib, kuchli og'riq hosil bo'ladi. Og'riq zo'rayib borib, hayvon oqsay boshlaydi. Shu tufayli yiringsiz infeksion jarayon rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratiladi.

Yiringli flegmona turli shaklda rivojlanishi mumkin, ayrim hollarda jarayon faqat tuyoq aylanasi ma'lum qismlaridagina rivojlanadi, bunday rivojlanish *absesslanuvchi flegmona* deyiladi. Bunday flegmonada bir hafta davomida 1–2 ta absesslar paydo bo'ladi, ular o'z-o'zidan yoriladi va hayvon tuzalib ketadi (asorati qolmaydi).

Tuyoq aylanasi yumshoq to'qimalarining ko'p miqdorda shikastlanishi va yuqori virulentli mikroblar tushishi natijasida yallig'lanish og'irroq kechadi, bunda nafaqat kletchatka, balki teri asosi, tukli teri kletchatkasi, juft tuyoqli hayvonlarda esa barmoqlararo to'qimalari seroz–gemoragik suyuqlik bilan shimiladi. Suyuqlik fermentlari ta'sirida kletchatka eriydi va kulrang, o'tkir badbo'y hidli yiringsiz massaga aylanadi.

O'lgan to'qimalarning ajralib chiqishi natijasida, yaralar hosil bo'ladi. Tuyoq aylanasi teri osti kletchatkasi barmoq teri osti kletchatkasining davomi bo'lgani sababli yiringli nekrotik jarayon osonlikcha yuqoriga va pastga qarab tarqala boradi va og'ir asoratlar, ya'ni tuyoq bo'g'imining yiringli artriti, chuqur yiringsiz pododermatit, tuyoq suyagining nekrozi, bukuvchi paylar nekroziga olib kelishi mumkin.

Flegmonaning kechish harakteri uning joylashishiga bog'liq. Agar flegmona tuyoq aylanasi pastida joylashgan kletchatkasidan boshlansa unda u *paraartikulyar flegmona* deyiladi va ko'pincha tuyoq bo'g'imining yiringsiz yallig'lanishiga o'tishi mumkin. Jarayonning asosiy o'chog'i yumshoq tovon yoki yumshoq tovon tog'ayi atrofidagi kletchatkada rivojlansa u *paraxondral flegmona* deyiladi va ko'pincha yumshoq tovon tog'ayining nekrozi bilan tugaydi. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012).

Ayrim hollarda jarayon tog‘ay ortiga o‘tsa, bunday flegmona *subxondral flegmona* deyiladi. Juft tuyoqli hayvonlarda tuyoq aylanasi flegmonasi barmoqlararo to‘qimalarida tarqalganda tuyoqlar orasidagi paylar, tuyoq va yumaloq suyaklar nekrozga chalinadi.

Birinchi navbatda shish paydo bo‘ladi, u tuyoq aylanasiining chap, o‘ng, old, orqa tomonlarida joylashadi, kuchli og‘riq seziladi, teri taranglashadi, tuyoqning mahalliy harorati oshib ketadi.

Shuning bilan bir qatorda hayvonning umumiy holati ham o‘zgaradi, tana harorati oshadi, kuchli og‘riq va oyoqning bosganda qiyinchilik bilan bosishi, ishtahasi yo‘qolishi, qonning leykotsitar formulasi chapga siljiydi, sigirlarning sut mahsuldorligi pasayadi, ular ko‘p yotadi, harakatda kuchli oqsaydi. Quyidagi o‘zgarishlar yallig‘lanish shishining kattarib borishi va yuqoridagi qayd etilgan o‘zgarishlar og‘irlashib borishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shish shoxsimon kapsula ustidan osilib qoladi, butun barmoq shishadi. Shishning eng yuqori qismida yumshoq o‘choq paydo bo‘ladi va ko‘p hollarda u o‘z–o‘zidan yoriladi. Undan suyuq, kulrang–sarg‘ish yiring ajraladi. Yiring ajralib chiqqanda hayvonning umumiy holati ancha engillashadi. Yiringli – chirish flegmonada shishning pastki qismida oq xoshiya hosil bo‘ladi. 3–4 kunlarda shishning taranglashgan yuzasida seroz suyuqlik sizib chiqa boshlaydi. 4–5 kunlarda suyuqlik seroz – gemoragik shaklga aylanadi, nekroz o‘chog‘i hosil bo‘ladi, nekrozga chalingan to‘qimalar ajralib chiqadi va o‘rnida yara rivojlandi. 6–8 kunlardan boshlab jarayon Yuqorida ko‘rsatilgan asoratlarga o‘tishi mumkin.

Kasallik qanday kechishidan qat’iy nazar teri asosining so‘rg‘ichsimon qavati strukturasi o‘zgaradi, natijada tuyoq deformatsiyasi kelib chiqadi. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012).

Davolash ishlari flegmonoz jarayonning fazasiga qarab bajariladi va ular yiringli nekrotik jarayonning harakteriga bog‘liq bo‘lishi lozim.

Birinchi navbatda davolash ishlari flegmonoz jarayonni to'xtatish va uni chegaralashga qaratilishi zarur, buning uchun spirt–ixtiolli bog‘lam, intraarterial antibiotikli in'eksiyani qo'llash zarur. Antiparabiotik muolajalar qo'llanadi.

Agar shu yo'l bilan kasallikni to'xtatish imkoni bo'lmasa, u vaqtda flegmonoz jarayonni ratsional va o'z vaqtida ochishga kirishiladi. Flegmonoz jarayonidan pastroqda tuyuq devori qirqib yupqalashtiriladi va shu bilan bosim kamaytiriladi.

Agar flegmona jarohat natijasida kelib chiqsa, jarohat xirurgik taftishdan o'tkaziladi. Flegmona yuzasidan suyuqlik sizib tursa (og'ir shaklida) vaqtni cho'zmasdan uni darxol ochish zarur, chunki bunday flegmonada jarayon tezda atrof to'qimalarga tarqalib ketishi mumkin.

Kesish qiya – gorizontaal yoki gorizontaal yo'nalishda bajariladi. Yiringli ekssudat tozalanganndan so'ng o'lgan to'qimalar olib tashlanadi, jarohat 3 % li vodorod peroksidi bilan yuviladi, quritiladi va so'ng ichiga tritsillin, sulfadimezin va tetratsiklin kukunlari sepiladi. Yodoform va borat kislotasi kukunlarini qo'llash yaxshi samara beradi. Jarayon ustiga bog‘lam qo'yiladi va bu bog‘lam 3–6 kundan keyin almashtiriladi. Undan tashqari sepsisga qarshi davolash usullari qo'llanadi, buning uchun venaga 80–100 ml 0,5 % li novokain eritmasi antibiotiklar bilan birgalikda yuboriladi. Antiseptiklarni arteriyaga yuborish yana ham yaxshi natija beradi. Bu davolashlar albatta jarroxlik usuli bilan birga bajariladi. (R.M.Tashtemirov,M.G.Karimov 2012).

Yumshoq tovon flegmonasi deb – tuyuq yumshog'ining kollagen va elastik biriktiruvchi to'qimalarning yiringli diffuz yallig'lanishiga tuShuniladi.

Bu kasallik asosan infeksiyaga chalingan sanchilgan jarohatlar va yiringsiz – nekrotik jarayonlarning atrof to'qimalardan o'tib (subxondral flegmona, chuqur pododermatit, tuyuq strelkasining chirishi) tarqalishidan hosil bo'lishi mumkin.

Kasallik boshida yumshoq tovon sohasi diffuz hujayrali infiltratsiya natijasida 2 marotaba kattalashadi. Keyinchalik bu joyda mayda – mayda yiringsiz o'choqlar paydo bo'ladi, ular bir – biri bilan birlashib, katta yiringsiz o'choqni

hosil qiladi va keyinchalik yorilib, katta yaraga aylanadi. Yaraning ichi granulyasion to‘qima bilan to‘lib turadi. Yaralar yumshoq tovon chuqurchasi, tuyoq devorining tovon qismi va yumshoq tovon chegarasida, terida, tuyoq aylanasing tovon qismida hosil bo‘ladi.

Qoramollarda flegmona yiringli nekrotik – chirish harakterga ega. Bunda to‘qimalar tez parchalanadi va yumshoq tovon yostiqchasida yara hosil bo‘ladi, u erda chuqur bukuvchi pay joylashganligi tufayli ko‘pincha mokisimon bursa va pay qinlari nekrozga uchraydi. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012).

Kasallikning birinchi belgisi – kuchli oqsashdir. Hayvon tuyog‘ining old qismiga bosib turadi, harakatda esa oyog‘ini avaylab uni bosmaydi. Hayvon jabrlanadi, ovqatdan qoladi, umumiy harorati oshadi. Kasallik boshida tuyoq tovonni qiziydi, og‘riq seziladi, taranglashgan shish ba‘zan barmoq bo‘ylab tarqaladi, otlarda u tovonning oraliq chuqurchasiga o‘tadi, keyinchalik shish flyuktuatsiya hosil qiladi, yoriladi va uning o‘rnida oqma hosil bo‘ladi. Oqma o‘zagi chuqur joylashadi. Oqmadan suyuq kulrang–sarg‘ish yiring ajralib turadi. Yiringxona ochilishi bilan hayvonning umumiy holati yaxshilanadi, oqsash kamayadi. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012).

Bu kasallik ham yuqorida qayd etilgan flegmona singari davolanadi. Asosiy talab – yiringxonani o‘z vaqtida ochish va yiringni erkin oqishi uchun sharoit yaratishdir. Operatsion maydon tayyorlanib, o‘tkazuvchan og‘riqsizlantirish bajariladi. Oqma hosil bo‘lganda uning kanali kengaytiriladi va o‘lgan to‘qimalar olib tashlanadi. Jarohat yuviladi, quritiladi va ustiga antiseptik bog‘lam qo‘yiladi. Agar operatsiya vaqtida chuqur bukuvchi payning nekrozi aniqlansa, patologik jarayon tuyoq strelkasi tomonidan ochiladi.

Tuyoqlarning revmatik yallig‘lanishi yoki boshqacha qilib aytganda tuyoq devori teri asosining diffuz – seroz yallig‘lanishi hamma tuyoqli hayvonlarda, ammo ko‘pincha otlarda kuzatiladi. Kasallik o‘tkir va surunkali kechadi. Surunkali kechganda tuyoq suyagi o‘z o‘rnidan siljiydi, tuyoq kapsulasi esa deformatsiyaga

uchraydi. Asosan ikkala oldingi oyoqlar, ayrim hollarda orqa oyoq tuyoqlari zararlanadi.

Kasallik hayvonlarni noto'g'ri saqlash va oziqlantirishdan kelib chiqishi ilgari ma'lum. Hozirgi vaqtda bir qator olimlar bu kasallikni quyidagi sabablardan kelib chiqishini ta'kidlaydilar:

1. Hayvon shamollashi, ya'ni qizib turgan otga sovuq suv ichirish yoki sovuq suvda cho'miltirib, uzoq vaqt shamolda olib qolish.

2. Oziqlantirish tartibining buzilishi. Roj, arpa, bug'doy, no'xat va boshqa oqsilga boy yoki sifati buzilgan va mog'orlagan oziqalarni edirish. Bunday hollarda otlarda sanchiq, qoramollarda esa damlash belgilari kuzatiladi. Qoramollarni so'li yoki beda bilan boqqanda ham bu kasallik rivojlanishi mumkin.

3. Tuyuqning teri asosiga uzoq vaqt mexanik ta'sir qilish. Masalan hayvonlarni temir va suv yo'llari orqali, avtotransportda tashish, yaylovda uzoq masofaga yurgizish, charchash.

4. Ayrim dori vositalarini (sabur, kerosin va boshq.) ko'p miqdorda va noto'g'ri qo'llash.

5. Ayrim infeksiyon kasalliklarning asoratlari – inflyuensa, yuqori nafas olish yo'llarining yallig'lanishi va hokazo.

6. Bola tashlash va tug'ishdan keyingi asoratlar.

7. Hozirgi davrda bu kasallik negizida allergiya yotadi deb hisoblanadi.

Ikkilamchi sabablarga tuyoqlar shaklining buzilishi (yalpoq yoki qisq tuyoqlarda), yurak faoliyatining buzilishi kiradi va boshqalar.

Jarayon surunkali kechganda tuyuq suyagi asta-sekin tik holatni egallaydi va tuyuq kaftining teri asosini siqadi. Tuyuqning kaft sohasidagi to'qimalar atrofiyaga uchraydi, pastga bo'rtib chiqadi va ayrim hollarda teshiladi.

Teri ostiga, barmoq arteriyalari atrofiga 1,5–2 ml dan 1:1000 nisbatdagi adrenalin yoki 2 % li novokain bilan adrenalin aralashmasi yuboriladi.

Kasallikning birinchi soatlaridan antigistaminli vositalarni qo'llash yaxshi samara beradi (I. Dits, G.S. Kuznetsov), amaliyotda ko'pincha teri ostiga 0,3–0,4 g

dan dimedrol yuboriladi. Agar revmatik yallig‘lanish organizmning keskin sovqotishidan kelib chiqqan bo‘lsa 10,0 geksametilentetramin, 10,0 natriy salitsilati va 2,0 kofeinlarni 200 ml fiziologik eritmasidagi aralashmasi qo‘llaniladi.

Ko‘rsatilgan aralashma bir marotaba vena ichiga yuborishga mo‘ljallangan. In‘eksiyalar 3–5 kun mobaynida har kun bajariladi. Yoki kunaro vena orqali 3–4 % li natriy bikarbonati bilan 10 % li natriy salitsilati yuboriladi. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012)

Dori vositalarini qo‘llash bilan birgalikda ratsiondan donli oзуqalar chiqariladi va hayvonlarga beriladigan suv miqdori chegaralanadi. Tuyoqlardagi og‘riq pasayganda hayvonlarni asta–sekin yurgizib turish lozim.

Yumshoq tovon tog‘ayi nekrozi otlarda uchraydi. Kasallik tog‘ayni o‘rab turuvchi tarqoq yumshoq kletchatkaning flegmonasi bilan harakterlanadi. Flegmona oqibatida tog‘ayning nekrozi rivojlanadi.

Flegmonozli jarayon bir tuyoq yoki taqa bilan qarama–qarshi turgan tuyoqning tuyoq aylanasi va yuqoriroq joylashgan to‘qimalarga keltirilgan yirtilgan – lat egan jarohatlar (“zasechka” rus.) og‘irlashishi natijasida hosil bo‘ladi. Zasechkalar sabablari quyidagi omillardan kelib chiqadi:

1. Oyoqlarning noto‘g‘ri – keng qo‘yilishi, bunda oyoq oldinga chiqarilganda u bo‘rtiq tomoni ichkariga qaratilgan yoysimon yo‘nalishda harakatlanadi;

2. Taqalovchi temirchining ishi sifatsiz bo‘lganda – tuyoq shoxini etarlicha kesmaslik, tuyoqning ichkariga qaragan devor chetini haddan ziyod kesish, taqaning ichki shoxini juda enli qilib yasash, taqa tishlari haddan ziyod uzun bo‘lishi va tashqariga qarab qiyshayib turishi, mix uchlari sifatli qaytarilmaganligi;

3. Otlarni saqlash va ekspluatatsiya qilish sharoitlari – sirpanchiq va notekis yo‘l, chuqur qor, otlarni bir–biriga yaqin joylashtirish;

4. Otlarni noto‘g‘ri boshqarish va boshq.

Hayvonlar har kun motsion bilan ta'minlanadi. Motsion tuyoqlarning tabiiy ishqalanishiga va ularda qon aylanishi yaxshilanishiga, hamda balchiq va gungdan tozalanishiga yordam beradi. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012).

Mo'l, har xil va sifatli oziqlantirish tuyoq kasalliklarga qarshi muhim profilaktik tadbirlarning biri hisoblanadi. Laborator analizlar yordamida karotin, protein, mineral moddalar miqdori aniqlanadi.

Bino va yayrash maydonchalar dezinfeksiyasida patogen mikroflora yo'qotiladi. Yoppasiga uchraydigan tuyoq kasalliklarida dezinfeksiya uchun 5% li o'yuvchi ishqor eritmasi, 20% li so'ndirilgan oxak, 2% li formalin eritmasi, 5% li paraformaldegid eritmasi va boshqalar qo'llanadi.

Hayvonlarni muntazam ravishda oyoq vannalaridan o'tkazish uchun ko'chirma yoki statsionar vannalar quriladi. Vannaning o'lchamlari: eni –darvoza eniga teng, uzunligi – 1,5–2 m, chuqurligi – 30 sm.

Hayvolarni vannada ko'p ushlab turmaslik lozim, aks holda terisi zararlanadi yoki tuyoq shoxi haddan ziyod zichlashadi.

Sovuqda vanna o'rniga 9:1 nisbatda so'ndirilgan oxak va mis kuporosining quruq aralashmasi qo'llanadi.

Qator xo'jaliklarda profilaktik ishlarini to'liq o'tkazish qiyin bo'ladi. Shuning uchun davolash va oldini olish choralar kompleks ravishda qo'llanadi. Bunday hollarda kasallikni birlamchi shakllarini davolash og'ir asoratlar rivojlanishining oldi olinadi.

Tuyoqlarni rejali ko'zdan kechirish kasal hayvonlarni o'z vaqtida aniqlashga va ularga davolovchi yordam ko'rsatishga imkon yaratadi. Tuyoqlari kasallangan hayvonlar aniqlanganda klinik tekshirishni haftaga bir – ikki marotaba o'tkazish lozim. (R.M.Tashtemirov, M.G.Karimov 2012).

Yirik qoramolchilik ho'jaliklarda podadagi hayvonlarni tez ko'rikdan o'tkazish va oqsaydigan sigirlarni ajratish uchun 10 metrlik po'lat quvurlardan ko'rik koridori (yo'lak) quriladi. Koridorning balandligi 110 sm, eni 80–100 sm. Koridorning kirish va chiqish joylari oson yopilib ochilishi lozim. Hayvonlar

toymasligi uchun poli tekis, sa'l g'adir – budur bo'lishi kerak. Ko'rik koridori bilan foydalanib, 10 daqiqa ichida 50 gacha sigirni ko'rikdan o'tkazish mumkin.

Profilaktik tadbirlar tizimida chorvadorlar orasida veterinar – targ'ibot ishlarni tashkillashtirish muhim o'rin tutadi. Sog'uvchilar va molboqarlar tuyuq kasalliklar to'g'risida elementar bilimlarga ega bo'lishlari lozim, bu davolashga o'z vaqtida yondoshishga yordam beradi. Chorvadorlarni o'qitish uchun ma'ruzalar kursini tashkil qilish kerak.

Tuyuq-bo'g'im kasalliklarini oldini olishda hayvonlar orasida seleksiya ishlarini olib borish katta ahamiyat kasb etadi. Modda almashinuvini aks ettiradigan tuyuq shoxining sifati irsiy belgi bo'lishi mumkin. Tuyuqlar deformatsiyasi, kam ishqalanish kabi xususiyatlar avloddan avlodga o'tadi. Shuning uchun nasldor buqalarning tuyuqlariga alohida e'tibor beriladi. O'zimizning mintaqamizda tuyuq-bo'g'in kasalligini davolash va oldini olish ikki etab ososida ya'ni ananaviy usulda va noananaviy usulda amalga oshiriladi. Ananaviy usulda umumiy tozalash yuvish bakteritsid eritmalar bilan ishlov berish paroshoklar sepish bog'lab qo'yish maxsadga muvofiq. Noananaviy usulda arzon va tez septik xolatga o'tkazmaydigan dori vositalarini qo'o'llash maxsadga muvofiq xisoblanadi.

III. SHAXSIY TEKSHIRISHLAR.

3.1. Tekshirish materiallari va uslubiyoti

Respublikamizda chorva strukturasini yaxshilash maqsadida chetdan olib kelingan mahsuldorli yuqori bo'lgan hayvonlarda uchraydigan tuyoq-bo'g'im kasalliklarini keltirib chiqaruvchi asosiy omillar va kasallikni uchrash darajasi o'ziga xos mintaqaviy xususiyatlari ega ekanligi bilan ajralib turadi, Shuni hisobga olgan holda chetdan olib kelingan mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarda kasallikni yuqoriligini hisobga olgan holda ilmiy tekshirish va tajribalarimiz Samarqand qishloq xo'jalik instituti, veterinariya fakultetining «Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarrohligi va farmakologiya» kafedrasida, Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi "Jo'ra" chorvachilik fermer xo'jaligida, Jomboy tumanidagi "Abduraxmonov Mardon" chorvachilik fermer xo'jaligida, Samarqand viloyati Urgut tumanidagi "A'zam Xoliqov biznes baraka" hamda "Mirzoxid Ziyoy" chorvachilik fermer xo'jaligida, Tayloq tumani "Siyob Shavkat Orzu" chorvachilik xo'jaligida olib borildi. Chetdan keltirilgan mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda uchraydigan tuyoq-bo'g'in kasalligini uchrash darajasi, kasallikni keltirib chiqaruvchi omillar, kasallikni klinik belgilari, kasallikni davolash va oldini olish ishlarini to'g'ri va samarali ishlab chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Tuyoq bo'g'in kasalliklarini aniqlash uchun umumiy tekshirish usullaridan foydalandik.

3.2. Qoramollarda tuyoqlarning anatomo-topografiyasi.

Qoramolning har bir oyog'ida to'rttadan barmoqlar mavjud, shulardan faoliyat ko'rsatadiganlar ya'ni tayanch vazifasini bajaradiganlar faqat uchinchi va to'rtinchi barmoqlardir, ikkinchi va beshinchilari esa rudimentlashgan (qoldiq barmoqlar). Tayanch barmoqlarning sohasida quyidagi to'rtta qavatlar bor.

Birinchi qavat – teri. Dorsal yuzada teri volyar yuzaga nisbatan qalin bo'ladi. Teri ostida, kuchsiz rivojlangan kletchatkada qon tomirlar joylashadi.

Ikkinchi qavat – yuza fassiya. U barmoqlararo yorig'i gumbazi sohasida

qalin yog‘ to‘qimasini (yog‘ yostiqchasi, barmoqlararo yog‘) tashqaridan qoplab turadigan mahsus fassial g‘ilofni hosil qiladi.

Uchinchi qavat – barmoqning chuqur fassiyasi.

To‘rtinchi qavat – pay, paychalar (bog‘lamlar), nerv, qon va limfatik tomirlar hamda falangalar suyaklari va ularning bo‘g‘imlari . Bu qavatdagi pay, nerv va qon tomirlarning joylashishi quyidagicha:

Barmoqning dorsal (old) yuzasida barmoqni mahsus, umumiy va yon tomondan yozuvchi paylar, volyar (orqa) yuzasida esa barmoqni bukuvchi yuza va chuqur paylar joylashgan.

Uchinchi barmoqni yozuvchi mahsus pay uchinchi barmoqning dorsal yuzasida, barmoqlarni umumiy yozuvchi paydan medial yotadi. U asosan yumaloq suyakda va faqat a‘loxida tutamlar bilan tushoq va tuyoqsimon suyaklarda tugaydi. Tugash joyining yaqinida pay suyaklararo o‘rta muskuldan (11) ikkita yordamchi tarmoqlarni qabul qiladi.

Barmoqlarni umumiy yozuvchi payi (4) kaftning dorsal yuzasida barmoqni yozuvchi mahsus paylarning orasidan o‘tadi. Kaftning o‘rta va distal qismlari chegarasida u ikkita tarmoqqa ajraladi. Tarmoqlarning har birisi tegishli tuyoqsimon suyakning yozuvchi o‘simtasiga birikadi. Ular ajralgan joyidan to ikkinchi falanganing o‘rtasigacha xususiy pay qiniga ega.

Barmoqlarni yon tomondan yozuvchi pay (beshinchi barmoqning mahsus yozuvchi payi) umumiy yozuvchi paydan lateral joylashadi. Tushoq bo‘g‘imining pastida u suyaklararo o‘rta muskuldan ikkita kuchaytiruvchi tarmoqlarni qabul qiladi va asosan yumaloq suyakda va ingichka tarmoq bilan to‘rtinchi barmoqning tuyoqsimon suyagida tugaydi.

Barmoqni bukuvchi yuza pay volyar yuzada joylashgan bo‘lib, kaftning distal qismida ikkita oyoqchalarga bo‘linadi. Tushoq bo‘g‘imining ustida u suyaklararo o‘rta muskuldan ikkita ingichka tarmoqni qabul qiladi. Bu payning har ikkala oyoqchalari birinchi falanganing orqasida yana ikki tarmoqqa bo‘linadi. Ularning orasidan barmoqni bukuvchi chuqur payning tugallanish tarmog‘i tashqi

yuzaga chiqadi. Pay kuchsiz ikkita oyoqchalari bilan yumaloq suyakning proksimal volyar pay birikuvchi boʻrtiklarida, uchinchi kuchliroq tarmogʻi bilan esa yumaloq suyakning orqa yuzasida tugaydi.

Barmoqni bukuvchi chuqur pay ham barmoqning volyar yuzasida yotadi. tushoq boʻgʻimining ustida u ikkita tarmoqga boʻlinadi. Ular esa uchinchi va toʻrtinchi barmoqlarga boradi. U gʻilof koʻrinishida barmoqni bukuvchi yuza payning tugallanish tarmoqlari bilan oʻraladi. Payning har bir oyoqchasi barmoqni bukuvchi yuza payning tegishli tugallanish qismini teshib oʻtib, ikkinchi falangaga kuchsiz tarmoqni beradi va tuyoq suyakning bukuvchi yuzasida tugaydi. tugallanishga yaqin joyda bukuvchi chuqur payning oyoqchasi va mokisimon suyakning oralarida, otlardagidek mokisimon shilimshiq xaltacha (bursa) mavjud

Barmoqni bukuvchi yuza va chuqur paylar umumiy pay qiniga ega. Pay qini kaftning oʻrtasidan pastroqda boshlanadi va yana pastroqda ikkiga boʻlinib, yumaloq suyaklarning oʻrta sohasida tugaydi. Bu erda pay qinlari mokisimon shilimshiq bursadan mokisimon suyakning koʻtarib turuvchi paychasi orqali ajratiladi.

Barmoqlar sohasidagi nervlar tomirlar bilan birgalikda suyaklar va paylar hosil qilgan mahsus ariqchalarda oʻtadi. Barmoqlar innervatsiyasi barmoqning umumiy dorsal, medial uchinchi dorsal, kaftning lateral dorsal, barmoqning lateral toʻrtinchi volyar va kaftning volyar medial nervlari orqali amalga oshiriladi .

Barmoqning umumiy dorsal nervi yuza tirsak nervidan ajralib, tushoq boʻgʻimi ustida uchinchi lateral va barmoqning medial toʻrtinchi dorsal nervlariga boʻlinadi. Ular esa uchinchi va toʻrtinchi barmoqlarning dorsal yuzalari ichki chetlarini boʻylab (barmoqlararo) distal yoʻnaladi va tuyoqning teri asosida tarmoqlanadi.

Medial uchinchi dorsal nerv (tirsakning yuza medial nervi tarmogʻi) uchinchi barmoqning medial yuzasi boʻylab pastga tushadi va teri, tushoq, yumaloq suyak va tuyoq boʻgʻimlarning innervatsiyasini amalga oshiradi. Barmoqning har bir dorsal nervi uchinchi va toʻrtinchi barmoqlarning yumaloq

suyak bo'g'imlari sohasida volyar nervlardan birlashtiruvchi tarmoqlarni qabul qiladi.

Kaftning dorsal lateral nervi (bilak nervining dorsal tarmog'i) barmoqlarni yon tomonga yozuvchi pay va suyaklararo o'rta muskuli hosil qilgan ariqchada o'tadi. Tushoq bo'g'imidan bir oz yuqoriroqda bu nerv rudimentar beshinchi barmoqqa tarmoqni va kaftning volyar nerviga birlashtiruvchi tarmoqni ajratadi. Bundan keyin bu nerv barmoqning lateral to'rtinchi dorsal nervi deb ataladi. Bu nerv to'rtinchi barmoqning lateral yuzasidan distal yo'nalib, tuyoq aylanasi terisining asosida hamda tushoq va yumaloq suyak bo'g'imlarida tarmoqlanadi.

Barmoqning lateral to'rtinchi volyar nervi (bilak nervining volyar tarmog'i) barmoqlarni bukuvchi paylarning lateral chetlaridan, pastga to'rtinchi barmoqning lateral yuzasiga yo'naladi.

Kaftning volyar medial nervi (o'rta nervning davomi) barmoqlarni bukuvchi yuza payning medial chetidan yo'nalib, kaftning distal qismida lateral va medial tarmoqlarga bo'linadi. Tushoq bo'g'imi sohasida lateral tarmoq yana o'zidan barmoqning lateral uchinchi va medial to'rtinchi volyar nervlarni ajratadi. Ular tegishli barmoqlarning barmoqlararo yuzasiga boradi va bu erda barmoqning dorsal nervi bilan anastamoz hosil qiladi. Medial tarmoq ikkinchi rudimentar barmoqqa tarmoq ajratadi va keyinchalik uchinchi barmoqning yon yuzasiga barmoqning medial uchinchi volyar nerv sifatida yo'naladi .

Barmoqlar sohasidagi kon tomirlar suyaklar va paylar hosil qilgan lateral va medial volyar ariqchalarda o'tadi. Barmoq to'qimalarining qon bilan ta'minlanishida barmoqning umumiy dorsal arteriyasi, barmoqning ikkinchi, to'rtinchi va uchinchi umumiy volyar arteriyalari ishtiroq etadi .

Barmoqning umumiy dorsal arteriyasi yaxshi rivojlanmagan. U dorsal yuzada uchinchi va to'rtinchi kaft suyaklari hosil qilgan ariqchada o'tadi. Barmoqlararo yorig'i gumbazining proqsimal qismida bu arteriya barmoqning uchinchi umumiy volyar arteriyadan tarmoq qabul qilib, teshib o'tuvchi barmoqlararo arteriya nomini oladi. U esa o'z navbatida barmoqning lateral

uchinchi va medial to'rtinchi mahsus dorsal arteriyalariga bo'linadi. Bular uchinchi va to'rtinchi barmoqlar dorsal yuzalarining ichki (barmoqlararo) chetlari bo'ylab tegishli tuyoqchalarga boradi.

Barmoqning ikkinchi umumiy volyar arterisiya kaftning pastki qismida kaftning ikkinchi volyar chuqur va barmoqning to'rtinchi umumiy volyar arteriyalari bilan anastamoz hosil qiladi. Buning natijasida tushoq bo'g'imining yuqorirog'ida, suyaklararo o'rta muskul va kaft suyaklari orasida chuqur volyar arterial yoy hosil bo'ladi. Pastroqda u rudimentar ikkinchi barmoqqa tarmoqchalar berib, barmoqning medial uchinchi mahsus volyar arteriyasi nomini oladi. Oxirgisi bukuvchi chuqur payning medial cheti bo'ylab pastga tushadi va uchinchi barmoqning tuyoqchasida tarmoqlanadi.

Barmoqning to'rtinchi umumiy volyar arteriyasi kaftning yuza volyar arteriyasi tarmog'idir. U kaftning to'rtinchi volyar chuqur va kaftning ikkinchi volyar chuqur arteriyalari bilan anastamoz hosil qiladi. Yuqoriga yo'nalib bu arteriya rudimentar beshinchi barmoqqa tarmoq beradi va shundan so'ng barmoqning lateral to'rtinchi mahsus volyar arteriyasi nomini olib, to'rtinchi barmoqning to'qimalarida tarmoqlanadi.

Barmoqning uchinchi umumiy volyar arteriyasi kaftning volyar yuza arteriyasi tugallanish qismidir. U o'zidan barmoqning ikkinchi va to'rtinchi umumiy volyar arteriyalarini ajratgandan so'ng hosil bo'ladi. Bu arteriya yumshoq tovon, uchinchi va to'rtinchi barmoqlarning ikkala arteriyalariga umumiy stvolni va birinchi falangalar uchun tarmoqlar beradi. Undan tashqari, bu arteriyadan barmoqlararo yorig'i gumbazi sohasida barmoqning umumiy dorsal arteriyasi uchun teshib o'tuvchi barmoqlararo arteriya ajraladi. Keyinchalik barmoqning volyar arteriyasi barmoqning lateral uchinchi va medial to'rtinchi mahsus volyar arteriyalariga bo'linadi.

Bu qavatda uchinchi va to'rtinchi falangalarning ichki (barmoqlararo yorig'iga qaratilgan) yuzalarida barmoqning lateral uchinchi va medial to'rtinchi venalari o'tadi. Bu venalar tuyoqning venoz to'ridan chiqadi. Tushoq suyagining

oʻrtasida ular oʻzaro birlashadi va barmoqning umumiy volyar venasini hosil qilib, kaftning yuza venasiga qoʻshiladi.

Limfatik tomirlar asosan barmoqlarning orqa yuzalaridagi ariqchalarga yoki boʻgʻimlarning bukish yuzalariga yaqin joylashadi. Limfatik tomirlarning bunday joylashishi ularning choʻzilishi, siqilishi va shikastlanishiga yoʻl qoʻymaydi.

Barmoqlar sohasidagi boʻgʻim, teri va uning hosilalaridan limfaning oqib chiqishi sakkizta bosh, shu jumladan toʻrtta yuza va toʻrtta chuqur limfatik tomirlar orqali bajariladi. Yuza bosh limfatik tomirlar barmoqning lateral va medial yuzalarida, teri osti kletchatkada ikkitadan boʻlib oʻtadi. Chuqur bosh limfatik tomirlar tomir – nerv tutamlar bilan birgalikda oʻtadi.

Har bir barmoqning suyak asosini tushoq, ikkita kunjutsimon, yumaloq, tuyoqsimon va mokisimon suyaklar tashkil qiladi. Bu suyaklar birlashadigan joylarda tushoq, yumaloq suyak va tuyoq boʻgʻimlari hosil boʻladi.

Tushoq (kaft – barmoq) boʻgʻimi (birinchi falanga boʻgʻimi) oʻzaro birikkan uchinchi va toʻrtinchi kaft suyaklari, ikkita tushoq suyaklarining proksimal uchlari va toʻrtta kunjutsimon suyaklar hisobidan hosil boʻlgan. Kaft suyaklarining boʻgʻim yuzalari birinchi falangalarga tegishli suyaklar, boʻgʻim kapsulasi, toʻrtinchi barmoqning tushoq boʻgʻimi lateral yon paychasi, uchinchi barmoqning medial yon paychasi va ikkita chet barmoqlararo paychalar bilan birlashadi.

Barmoqlararo paychalar kaft suyagining doʻngliklararo yorigʻida boshlanib, helpigich koʻrinishida tarqaladi va tushoq suyaklarning bir – biriga qaratilgan proksimal uchlari birikadi. Barmoqlar yon tomonlarga haddan ziyod tarqalishiga birinchi falanganing oʻrta qismlari orasida joylashgan barmoqlararo paycha va kesishgan paychalar yoʻl qoʻymaydi. Kesishgan paychalar kunjutsimon suyaklarning distal qismlarida boshlanadi, oʻzaro kesishadi va uchinchi va toʻrtinchi barmoqlarning birinchi falangalari proksimal uchlari tugaydi.

Yumaloq suyak boʻgʻimi (ikkinchi falanga boʻgʻimi) yoshi katta hayvonlarda tuyoq aylanasi oʻrtacha 2 sm ga balandroq joylashadi. Boʻgʻim tushoq va yumaloq suyaklarning birlashishi natijasida hosil boʻladi. Suyaklar

bo'g'im kapsulasi, keng lateral va medial yonbosh paychalar, hamda ikkita juft orqa (yon va o'rta) paychalar yordamida o'zaro birikadi. Ayrim hollarda bo'g'im bo'shligi barmoq bukuvchilarining pay qini bilan birlashadi.

Tuyoq bo'g'imi (uchinchi falanga bo'g'imi) yumaloq suyakning distal uchi, tuyoqsimon va mokisimon suyaklarning bo'g'im yuzalari birlashishi hisobidan hosil bo'ladi. Uning bo'g'im kapsulasida old va orqa sinovial bo'rtiqlari bor. Old bo'rtiqning yuqorigi uchi shoxsimon kapsuladan bir oz Yuqoriroqda joylashadi. Undan tashqari bo'g'imda lateral va medial yonbosh paychalari mavjud. Lateral paycha yupqaroq bo'lib, yumaloq, tuyoqsimon va qisman mokisimon suyaklarga birikadi.

3.3.Mahsuldor sigirlarda tuyoq bo'g'im kasalliklarini keltirib chiqaruvchi etiologik omillar va uchrash darajasi.

Mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarni tuyoq bo'g'in kasalliklarini uchrashi oqibatida nafaqat chorvachilik xo'jaliklariga balkim xalq istemoli uchun zarur bo'lgan sut va go'sht mahsulotlarining kamayishiga olib kelmoqda. Bizlar tuyoq bo'g'in kasalliklarini keltirib chiqaruvchi asosiy etiologik omillarni hamda kasallikni uchrash darajasini urganish maqsadida ilmiy izlanishlarimizni Samarqand qishloq xo'jaligi instituti veterinariya fakulteti "Hayvonlar anatomiyasi, fiziologiyasi, jarrohligi va farmakologiya" kafedrasida hamda Samarqand viloyati tayloq tumanidagi "Siyob Shavkat Orzu" chovachilik fermer xo'jaligida, Pstdarg'om tumanidagi "Jo'ra" femer xo'jaligida, Jomboy tumanidagi "Abduraxmonov Mardon" Fermer xo'jaligida, Urgut tumanidagi "Uchkun" fermer xo'jaligida hamda "Mirzoxid Ziyo", "A'zam Xoliqov Beznis Baaraka" chorvachilik fermer xo'jaliklari misolida mahsuldor sigirlarda uchraydigan tuyoq bo'g'in kasalliklari bo'yicha ilmiy izlanishlarimizni olib bordik.

Mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarning tuyoq bo'g'in kasalliklarini asosiy keltirib chiqaruvchi asosiy etiologik omillar qo'ydagilardan iborat:

Birinchidan - chetdan keltirilayotgan mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarni tuyoqlariga vaqtida va to'g'ri ishlov berishda asosiy veterinariya ishlarini bajarilmasligidan.

Ikkinchidan - mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarni saqlash sharoitlaridagi kamchiliklar hamda namligi yuqori bo'lgan joylarda saqlanayotganligidan.

Uchinchidan - hayvonlar oziqlanadigan va saqlanadigan joyning betonli tushamardan qilinganligidan.

To'rtinchidan – hayvonlar tuqqanidan so'ng sut orqali organizmdagi mikro va makro elementlarni tashqariga chiqarilishidan hayvonlarning oziqalaridaga etarli darajada kerakli bo'lgan asosiy mikro va makro elementlarga bo'lgan talabni qondirilmasligidan.

Beshinchidan – hayvonlar uchun etarli darajadagi yayratish maydonlari bo'lmasligidan hamda matsionning kamligidan.

Oltinchidan turli xildagi yot jismlarni hayvon saqlanadigan joyda bo'lishidan hamda baxor, qish va kuz oylarida haddan tashqari yog'ingarchilik kup bo'lganligidan, namlikning ortiqcha bo'lishidan oyoqning distal qism kasalliklarini ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagilardan kuzatishlarimizdan ko'rinib turibdiki mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarning aksariyatida tuyoq bo'g'in kasalliklari nomutonosib holatdagi veterinariya va zoogegina talablari bajarilmaganligi oqibatida kasallikning ko'p uchrashiga olib kelinganligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Bizlar ilmiy izlanishlarimiz va tuyoq bo'g'in kasalliklarini etiologik omillarini urgangan holda viloyatimizdagi chorvachilik xo'jaliklarida o'tkazgan tajribalarimizga asosan kasallikni uchrash darajasini tahlil qilganimizda qo'ydagilar aniqlandi:

Samarqand viloyati Tayloq tumanidagi "Siyob Shavkat Orzu" chorvachilik fermer xo'jaligida 2015-2016 yillarda 950 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning bahor oylarida 195 bosh (20,5%), yoz oylarida 15 bosh (1,6%) kuz oylarida 25 bosh (2,6%) qish oylarida 45 bosh (4,7%) tuyoq bug'in bilan

kasallanganligi va bu o'rtacha 70 boshni (7,4%) tashkil qildi. Shunga o'xshash "Jo'ra" chorvachilik fermer xo'jaligida 2015-2016 yillarda 380 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning bahor oylarida 27 bosh (7,1 %), yoz oylarida 8 bosh (2,1%) kuz oylarida 12 bosh (3,1%) qish oylarida 14 bosh (3,7%) va o'rtacha 70 bosh (7,4%) hayvonlarda tuyuq bug'in kasalligi bilan birgalikda bo'g'in kasalliklari ma'lum bo'ldi.

Samarqand viloyati Jomboy tumani "Abduraxmonov Mardon" fermer xo'jaligida 2015-2016 yillarda 92 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning bahor oylarida 37 bosh (40,2 %) , yoz oylarida 19 bosh (20,6%) kuz oylarida 21 bosh (22,8%) qish oylarida 23 bosh (25%) va o'rtacha 25 bosh (27,1%) hayvonda tuyuq bug'in kasalligi borligi aniqlandi.

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi "A'zam Xoliqov biznes baraka" chorvachilik fermer xo'jaligida 2015-2016 yillarda 43 bosh qoramollar klinik tekshirilganda ularning bahor oylarida tuyuq bug'in kasalligi 4 boshni (9,3 %), yoz oylarida uchramadi, kuz oylarida 2 boshni (4,6 %) qish oylarida esa 3 boshni (6,9 %) va o'rtacha 2 boshni (4,6%) tashkil etdi.

Urgut tumanidagi "Uchkun" fermer xo'jaligida jami 51 bosh hayvondan baxor oylarida 17 boshi (33%), yoz oylarida 5 boshi (9,8%), kuz oylarida 8 boshi (15,6%), qish oylarida 12 boshi (23,5%), o'rtacha 10 boshni (19,6%) tuyuq buhim kasalligi tashkil qildi hamda "Mirzoxid Ziyov" fermer xo'jaligida 48 bosh mahsuldor sigirlar klinik tekshirilganda bahor oylarida 14 boshni (29%), yoz oylarida 4 boshni (8,3%), kuz oylarida 9 boshni (18,7%), qish oylarida 11 boshni (23%) va o'rtacha 9 boshni (18,7%) ni tuyuq bug'in kasalligini tashkil qildi.

1-jadval

t/r	Ho'jalik nomi	Jami tekshirilgan hayvonlar soni	2016 yilda kasallangan hayvonlar soni va foizi									
			Bahor		YOz		Kuz		Qish		O'rtacha	
			Soni	%	Soni	%	soni	%	soni	%	Soni	%
1	"Siyob Shavkat Orzu" f/x	950	195	20,5	15	1,6	25	2,6	45	4,7	70	7,3

2	“Jo‘ra” f/x	380	27	7,1	8	2,1	12	3,1	14	3,7	15	3,7
3	“Abduraxmonov Mardon” f/x	92	37	40,2	19	20,6	21	22,8	23	25	25	27,1
4	“A‘zam Xoliqov beznes baraka” f/x	43	4	9,3	-	-	2	4,6	3	6,9	2	4,6
5	“Uchkun” f/x	51	17	33	5	9,8	8	15,6	12	23,5	10	19,6
6	“Mirzoxid Ziyoy” f/x	48	14	29	4	8,3	9	18,7	11	23	9	18,7
	Jami	1564	73	34,7	13	11	19,2	16,8	27	21,7	32,7	20,2

Olingan natijalarni fasllar bo‘yicha taxlil qilganimizda baxor oyida xo‘jaliklardagi jami tekshirilgan 1564 bosh xayvonlarning 294 boshida (18,7%), yoz faslida 51 boshida (11%), kuz faslida 77 boshida (19,2%), qish faslida esa 108 boshida (21,7%) va o‘rtacha 131 bosh (20,2%) hayvonlarda tuyuq bug‘in kasalligi fasllar bo‘yicha tahlil qilib o‘rganildi.

Tekshirishlar natijasida jami tekshirilgan hayvonlarda orqa oyoqning o‘ng va chap tashqi tuyuqchalari va oldingi o‘ng va chap oyoqlaridagi ichki tuyuqchalari yiringli pododermatit bilan zararlanganligi hamda yiringli va yiringsiz tuyuq kasalliklari asorati sifatida bug‘inlarda ham turli xildagi yallig‘lanishlar kechishi oqibatida yiringli sinovit, yiringli artirit va flegmonali bug‘in kasalliklari birga kechganligini qayd etishimiz mumkin.

Samarqand viloyati tayloq tumanidagi “Siyob Shavkat Orzu” chovachilik fermer xo‘jaligida, Pastdarg‘om tumanidagi “Jo‘ra” fermer xo‘jaligida, Jomboy tumanidagi “Abduraxmonov Mardon” Fermer xo‘jaligida, Urgut tumanidagi “Uchkun” fermer xo‘jaligida hamda “Mirzoxid Ziyoy” chorvachilik fermer xo‘jaliklari misolida mahsuldor sigirlarda uchraydigan tuyuq bo‘g‘in kasalliklari bo‘yicha ilmiy izlanishlarimiz Shuni ko‘rsatdiki mahsuldorligi Yuqori bo‘lgan hayvonlarda bahor va qish oylarida hamda kuzda ko‘p yog‘ingarchilik bo‘lgan vaqtlarida kasallikning ko‘p uchrashi yaqqol namoyon bo‘ldi.

Tekshirish natijalari shuni kursatdiki tuyuq bug‘in kasalligi bilan kasallangan mahsuldorligi yuqori bo‘lgan sigirlarda kasallikni keltirib chiqaruvchi asasiy omillar quydagilardan iborat:

Birinchidan sigirlarni tuyog'iga vaqtida ishlov bermaslik ya'ni o'ta nam joyda saqlanadigan hayvonlarni tuyog'i quriq joyda saqlanadigan hayvonlar tuyog'iga nisbatan tez o'sganligi sababli tuyoqlarni kesish kechikkanligi hamda kesish texnikasiga rioya etmaslik.

Ikkinchidan mahsuldorligi yuqori sigirlarda ratsiondagi mikro va makro elementlar kamligi natijasida sut orqali tuyoqqa kerakli bo'ladigan elementlar chiqib ketishi oqibatida organizmni mikro va makro elementlarga bo'lgan talabini qondirilmasligi.

Uchinchidan ayrim xo'jaliklarda hayvonlar tuyog'iga farmalinli vannalar umuman qilinmasligi ya'ni kesilgandan keyin ham namligi yuqori bo'lgan joyda saqlanishidan tuyoq bug'in kasalliklari yallig'langan joyda tez rivojlanib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Tekshirishlar natijasidan ma'lum bo'ldiki, oyoq bo'g'inlari yiringli yallig'lanishlari asosan ko'proq oyoqning distal bo'g'inlarida uchrab, uning kechishi jarohat turiga va mikroorganizmlarning virulentligiga bog'liq, ya'ni jarohat oqibatida qancha ko'p bo'g'in elementlari shikastlansa va ular mikroblar bilan ifloslansa, patologik jarayon shunchalik og'ir kechadi va asoratli bo'ladi.

Ko'pchilik xo'jaliklarda yayratish maydonchalari yo'q, bo'lsada juda tor bo'lib, go'ngdan o'z vaqtida tozalanmaydi. Hayvonlar uchun asosan qish va bahor oylarida matsion etishmaydi, ular saqlanadigan joylarda pollarning notekisligi, harakatning chegaralanganligi va namlikning yuqori ekanligi, tuyoqlarning noto'g'ri o'sishi, yorilishi va oyoqlar distal qismlari bo'g'inlarining turli xildagi jarohatlanishi oqibatida yiringli xarakterdagi yallig'lanishlarning rivojlanishiga sabab bo'lgan.

Hayvonlar qabul qiladigan oziqa ratsionlari tekshirilganida aksariyat xo'jaliklarda kletchatka miqdorining me'yorlardan ortiqchaligi, mavjud kletchatkaning 44 % paxtani qayta ishlash natijasida olingan ozuqalar hisobiga to'g'ri keladi. Paxta sheluxasi va shroti tarkibidagi gossipol polifenolining ratsiondagi erkin gossipol miqdori 0,036 % ni tashkil etadi.

Chunonchi, organizm zaiflashib qolganida ba'zi fiziologik ta'surotlar, organizmning ekskretlari ham yallig'lanishga sabab bo'lishi mumkin. Tuyuq bo'g'im yallig'lanishining yana bir asosiy sabablaridan biri bakteriyalar, stafilokokklar, streptokokklar, ichak tayoqchasi va zamburug'lar turli xildagi jarohatlanishlar oqibatida organizmga tushib, moslashib, ko'payib, patologik jarayonlarni rivojlantiradi.

Yuqoridagi kuzatishlardan hamda ilmiy izlanishlarimiz natijalarini tahlil qilganimizda viloyatimizdagi mahsuldorligi Yuqori bo'lgan chorvachilikka ixtisoslashtirilgan qoramollar orasida tuyuq bo'g'in kasalligi bilan kasallanish darajasi yuqoriligi hamda kasallikka chalingan hayvonlar orasida tuyuq bo'g'in kasalliklari rivojlangandan so'ng organizmga tushgan patogen mekroblar hisobiga sigirlarda mastit kasalligi, metrit kasalligi, endometrit kasalliklari va bir qancha shunga uxshash kasalliklar hisobidan hayvonlarni bepushlik ya'ni nasldan qolish xolatlarini kelirib chiqarmoqda. Shuningdek mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda uchraydigan tuyuq bo'g'in kasalliklari bilan kasallangan hayvonlarning ko'pchiligida kasallikni keltirib chiqaruvchi mintaqaviy xususiyatlarga ega bo'lgan omillarni o'rganish va tashxis usullarini ishlab chiqish maqsadida qoramollarni saqlash va oziqlanish sharoitlari, ratsion tahlili, klinik tekshirishlar yordamida mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarni kasallanish darajasi, klinik kasal qoramollar bosh soni aniqlanishi bilan birgalikda klinik tekshirishlarda hayvonlarning umumiy ahvoli, ishtahasi, tuyuq va bo'g'inlarining holati, tana harorati, pulsi, nafas olishi, ularning tuyuq oralig'ida hosil bo'lgan shishlarning xarakteri, jarohatlangan tuyuq teri asosidagi yiringli jarayonlar, og'riq sezish natijalari aniqlandi.

Tekshirishlar natijasida ko'ra tuyuq bo'g'in kasalligi turli xildagi jarohatlar asorati sifatida rivojlanishi ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari tuyuq teri asosining mexanik jarohatlanishi, tuyuq tovonining shox pardasi emirilishi natijasida yiringli pododermatitlar kasalligi kasallangan hayvonlarning aksariyatida bo'g'inlarning ham yiringsiz va yiringli yallig'lanishlari kuzatildi.

3.4. Tuyuq bo'g'in kasalligini davolash usullari.

Tekshirishlar natijasida mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarda uchraydigan tuyuq bo'g'in kasalligini uchrash darajasini viloyatimizdagi bir qancha qoramolchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklar misolida tahlil qilgan holda davolash usullarini Urgut tumanidagi "Mirzoxid Ziyoy" fermer xo'jaligida tajribalarimizni 51 bosh mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda amalga oshirdik. Ilmiy tajriba uchun mahsuldorligi yuqori bo'lgan tuyuq va bo'g'in kasalligi bilan kasallangan 450-500 kilogram tirik vaznga ega bo'lgan 10 bosh hayvon tanlab olinib 2 guruhga ajratildi. Tanlab olingan hayvonlarning tuyuq va bo'g'inlaridagi turli xildagi yiringsiz va yiringli uchoqlar yaqqol namoyon bo'lib turganligi uchun hamda tanlangan hayvonlardagi klinik o'zgarishlar bir biridan farqi umuman yo'qligini hisobga olgan holda bir xil sharoitda bir xil oziqalar bilan oziqlantirildi.

Tajribagacha va tajriba davomida hayvonlar klinik ko'rikdan o'tkazilib turildi. Tajribadagi mahsuldorligi Yuqori bo'lgan sigirlarning tuyuq va bo'g'in atrofida kechayotgan yallig'lanish jaroyonlariga, anamnez ma'lumotlari, tuyuq bo'g'in kasalliklarini umumiy va maxsus tekshirish usullariga tayangan holda hamda tuyuq teri asosidagi yiringli uchoqlarda kechayotgan holatlarni bo'g'inlardagi eksudatlarni yig'ilishiga qarab tuyuq bo'g'in kasalligi deb tashxis qo'yildi.

Olingan xar bir gurux hayvonlari 5 boshdan ajratilib xar bir guruh hayvonlariga an'anaviy usulga ya'ni iliq suvda 1:1000 kaliy permanganat eritmasida yuvilib tuyuq va bo'g'inlardagi yiringsiz va yiringli eksudatlar tozalanilib streptomitsin kukuni sintamitsin mazlar qo'llanilib sterillangan bint bilan bog'lab qo'yildi qo'shimcha noan'anaviy usul yuqori samarali dori vositalaridan, foydalanilib amalga oshirildi. Ikkala guruh hayvonlaridan tajribagacha qon namunasi olinib qonning gematologik ko'rsatgichlari tekshirilib borildi.

Birinchi tajriba gurux hayvonlariga an'anaviy usulga streptomitsin kukuni sintamitsin mazi aralashtirilib qo'llanildi qo'shimcha ravishda noan'anaviy usulga

Belarussiyadan keltirigan linkospekt -150 antibiotigi bir kunda bir marotaba 450-500 kg og'irlikka 10 ml dan 7-kun davomida muskul orasiga in'eksiya qilindi, biostimullovchi dori vositasi Butazol-100 dan 20 ml vena qon tomiriga kun ora bir marotabadan 3 marta yuborildi.

Ikkinchi gurux hayvonlariga an'anaviy usulga oksitetratsiklin mazi qo'llanildi hamda Belarussiyadan keltirilgan vetatsef-50 antibiotigi 450-500 kg og'irlikka 15 ml dan 7 kun davomida bir marotabadan muskul orasiga in'eksiya qilindi. Bundan tashqari Butazol-100 dan 20 ml vena qon tomiriga kun ora bir marotabadan 3 marta yuborildi.

Tadqiqotlar jarayonida hayvonlar klinik tekshiruvdan o'tkazilib turildi. Har ikkala gurux hayvonlarida xam kasallangan tuyoq va bo'g'inlariga ishlov berilib bog'lab quruq joyda ajratilgan xolda saqlanildi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra birinchi guruh hayvonlari davolashning 4 - kunida klinik tekshirilganda tuyoqlardagi jarohatlar bitayotganligi lekin bo'g'inlardagi ekssudatlar bo'lmasada shishlar to'liq qaytmaganligi kuzatildi.

Ikkinchi gurux hayvonlari davolashning 4 - kunida klinik tekshirilganda tuyoqlardagi jarohatlar bitishi yaxshi lekin bo'g'inlardagi eksudat borligi mahalliy xarorat saqlanib qolganligi hamda hayvon yotib turishda og'riq borligi bo'g'inlar bosib ko'rilganda yiringli eksudat qisman ajratilganligi kuzatildi.

Tajribadagi birinchi guruh hayvonlari tajribaning 7- kunida klinik tekshirilganda tuyoq va bo'g'inlardagi jarohatlarning bitganligi mahalliy harorat yo'qligi hamda bo'g'inlarda shishlar bir oz saqlanib qolganligi kuzatildi.

Tajribadagi 2- guruh hayvonlari 7-kuni klinik tekshirilganda tuyoqlaridagi jarohatlar qisman borligi lekin bo'g'inlardagi eksudat hisobiga shishlar saqlanib qolinganligi kuzatildi.

Tajribaning 10- kunida birinchi guruh hayvonlariga an'anaviy usulga streptomitsin kukuni va sintamitsin mazi aralashtirilib qo'llanilgan hayvonlarga qo'shimcha ravishda Belarussiyadan keltirilgan linkospekt -150 antibiotigidan 10 mldan muskul orasiga hamda Butazol-100 preparatidan vena qon tomiriga 20

mldan qo'llanilgan tajribadagi hayvonlarning tuyoq bo'g'inlaridagi o'zgarishlar ijobiy natijasini topganligi yaqqol namoyon bo'ldi.

Tajribaning 10-kunida ikkinchi guruh hayvonlariga ana'naviy usullarga qo'shimcha ravishda Belarussiyadan keltirilgan vetatsef-50 antibiotigi 15 mldan muskul orasiga hamda Butazol-100 dan 20 ml vena qon tomiriga kun ora bir marotabadan 3 marta qo'llanilgan hayvonlar tekshirilganda tuyoqdagi jarohatlar yaxshilanganligi lekin bo'g'inlardagi shishlar to'liq qaytmaganligi hamda og'riq saqlanib turganligi kuzatildi. Ikkinchi guruh hayvonlari tajribaning 13 kunida to'liq sog'ayganligi tajriba davomida kuzatib borildi. Tuyoq bo'g'in kasalliklarini davolash va oldini olish usullarini takomillashtirish uchun davolashni samarali usullaridan foydalanganimiz tajribadagi hayvonlarni sog'ayishiga qarab o'z echimini topdi.

3.5. Olingan natijalar taxlili.

Samarqand viloyati Urgut tumanidagi "Mirzohit Ziyo" fermer xo'jaligida ilmiy tajribalarimizni mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarning tuyoq bo'g'in kasallini davolash uchun ajratilgan 10 bosh kasal hayvonlarda olib borganimizda qo'ydagi natijalarga erishildi.

An'anaviy usulga qo'shimcha ravishda streptomitsin kukuni sintamitsin mazi aralashtirilib qo'llanilgan hayvonlarga Belarussiyadan keltirilgan linkospekt - 150 antibiotigi bir kunda bir marotaba 450-500 kg og'irlikka 10 ml dan 7-kun davomida muskul orasiga in'eksiya qilindi, biostimullovchi dori vositasi Butazol-100 dan 20 ml vena qon tomiriga kun ora bir marotabadan 3 marta yuborilgan tajribadagi hayvonlarni tuyoq bo'g'in kasalliklari davolashning 10 - kuniga kelganda o'z samarasini tajribadagi ikkinchi guruh hayvonlariga an'anaviy usulga qo'shimcha oksitetratsiklin mazi qo'llanilgan hamda Belarussiyadan keltirilgan vetatsef-50 antibiotigi 450-500 kg og'irlikka 15 ml dan 7 kun davomida bir marotabadan muskul orasiga in'eksiya qilingan hamda Butazol-100 biostimulyator

preparatidan 20 ml vena qon tomiriga kun ora bir marotabadan 3 marta yuborilgan hayvonlarda tajribaning 13 kuniga kelib tuyuq bo'g'in kasalligidagi patologik uchoqlarni yaxshilanganligi kuzatilgan bo'lsada lekin davolash samarasi linkospekt -150 antibiotigida yuqori ekanligi bilan ajralib turibdi.

Bundan ko'rinib turibdiki biz olib borgan ilmiy tajribalarimizdagi davolash usullarini samaradorligi birinchi tajriba guruhidagi asosiy qo'llanilgan linkospekt - 150 antibiotigida o'z samaradorligi davolash muddatini qisqaligi shuningdek xo'jalikni iqtisodiy tomonlariga to'la mos kelishi bilan davolash sxemasini yaxshi natija berdi deb aytishimiz mumkin.

3.6. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarda tuyuq bo'g'in kasalligini oldini olish chora tadbirlari

Ilmiy kuzatishlarimiz shuni kursatdiki mahsuldoligi yuqori bo'lgan sigirlarni bizning mintaqamizga moslashishi hamda ba'zi adabiyotlarda yozilishicha tuyuq bo'g'in kasalliklariga chalingan hayvonlarning aksariyatida hayvonlarning tuyuqlariga vaqtida ishlov birmaslik hamda hayvonlar saqlanadigan joyning haddan tashqari namligi va oziqlantirish ratsioniga to'la amal qilmasligidan kasallikni yil davomida kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Tuyuq bo'g'in kasalligini hosil bo'lishida asosiy omillardan biri shikastlanishlar natijasi bo'lib, organizmning rezistentligini pasayishi tuyuq shox kapsulasida va tuyuq teri asosi surg'ichsimon qavatining to'qimalaridagi yallig'lanish hisobiga proliferativ jarayonlarni rivojlanishi, Shuningdek bo'g'inlarni ayniqsa oldingi oyoq bo'g'inlari hayvonlar tuyuq kasalligi bilan kasallangan vaqtida turishga harakat qilganda turli xil jarohatlar olishi hisobidan bu kasallik kelib chiqishiga asosiy sabab bo'lmoqda.

Bundan tashqari biz tajriba olib borgan ho'jaliklardagi hayvonlarni kuzatganimizda asosan mahsuldor sigirlarda uchraydigan tuyuqning yiringli va yiringsiz kasalliklari orqa oyoqlarda ko'p uchragan bo'lsa, bo'g'in kasalligi bilan

kasallangan hayvonlarning aksariyatida orqa oyoqlarga nisbatan oldingi oyoqlari zararlanishi ko'pligi bilan ajralib turibdi.

Bizlar olib borgan ilmiy kuzatishlarimiz va kasallikni kelirib chiqaruvchi sabablarni urgangan holda tuyoq bo'g'in kasalliklarini oldini olish uchun qo'ydagi chora tadbirlarni amalga oshirish kerak.

1. Qoramollarda uchraydigan yiringsiz va yiringli tuyoq bo'g'in kasalliklariga chalinmasligi uchun xo'jalikdagi hayvonlarni tuyoqlari vaqtida to'g'ri kesilib shakl berilishi kerak.

2. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlar saqlanadigan joy betonli yoki panjarali va nosoz poldan bo'lmasligi lozim. Hayvonlar saqlanadigan joy quruq hamda pishgan g'ishtdan qilingan siydigi chiqib ketadigan holatda bo'lishi kerak.

3. Mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarni aksariyatida tuqqandan keyin tuyoq bo'g'in kasalligi rivojlanishi natijasida yallig'langan tuyoq teri asosiga yiring chaqiruvchi mikro organizmlar tushishidan bo'g'inlarni zararlashiga sabab bo'lmoqda. Buning uchun tuyoq va bo'g'inlarga zarar etkazadigan turli hildagi mexanik tasir etuvchi jismlardan hayvonlarni saqlash lozim. Bundan tashqari sigirlar tuqqanidan keyin sut orqali organizmdagi mikro va makro elementlar tashqariga chiqib ketishini hisobga olgan holda oziqa ratsioniga qo'shimcha ravishda mikro va makro elementlari bilan boyitilgan sifatli qo'shimchalar qo'shib berilishi kerak.

4. Bundan tashqari ho'jaliklarda quyosh nuri tushib turadigan yayratish maydonlari bo'lishi bu maydonlar quruq tuproqli bo'lishi bilan birgalikda begona jismlardan holi bo'lishi kerak.

Shuningdek tuyoq bo'g'in kasalligini oldini olish uchun hayvonlar tuyoqlariga ishlov berilgandan keyin 3% li farmalinli vanadan o'tkazib turilishi ayrim ko'zga ko'rinmagan jaroxatlarni rivojlanishini oldi olishda samarali yordam beradi. Bu usulni kuniga o'tkazib borilganda kasallikni chiqish darajasini 80-90% ga kamaytirishga erishish mumkin.

IV.XULOSALAR

Xulosa o'rnida shuni takidlashimiz lozimki, Samarqand viloyatining ayrim ho'jaliklaridagi tuyoq bo'g'in kasalliklarini uchrash darajasini fasllar bo'yicha tahlil qilganimizda xo'jaliklardagi jami tekshirilgan 1564 bosh xayvonlardan 661 boshi kasallangan bo'lib shundan bahor oylarida 294 boshida (18,7%) tashkil etgan bo'lsa, yoz faslida 51 boshi (11%) ni, kuz faslida 77 bosh hayvon kasallangan bo'lib (19,2%) ni qish faslida esa 108 bosh hayvonda (21,7%) ni va o'rtacha 131 bosh kasallangan bo'lib (20,2%) hayvonlarda tuyoq bo'g'in kasalligi borligi aniqlandi.

1.Mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlarda uchraydigan tuyoq kasalliklarining ko'proq orqa oyoqlarning tashqi tuyoqchalarida kuzatilishi qayd etildigan bo'lsa, bo'g'in kasalliklarini aksariyatini esa oldingi oyoq bo'g'inlarida kuproq uchrashini kuzatdik.

2. Sigirlarda uchraydigan tuyoq bo'g'in kasalliklarini ko'proq tayanch oqsashi, tuyoqlarning ilgich qismi va devorlarida kuchli og'riq va ayniqsa tuyoq tovonidagi hamda bo'g'inlardagi mahalliy haroratning ko'tarilishi bilan xarakterlanadi.

3. Tuyoq bo'g'in bilan kasallangan birinchi guruh hayvonlarga an'anaviy usullarga qo'shimcha ravishda streptomitsin kukuni sintamitsin ma'zi aralashtirilib jarohat joyiga qo'llanildi hamda hayvonlarga Belarussiyadan keltirilgan linkospekt - 150 antibiotigi bir kunda bir marotaba 450-500 kg og'irlikka 10 ml dan 7-kun davomida muskul orasiga in'eksiya qilindi, biostimullovchi dori vositasi Butazol-100 dan 20 ml vena qon tomiriga kun ora bir marotabadan jami 3 marta yuborilgan tajribadagi hayvonlarni tuyoq bo'g'in kasalliklari davolashning 4-kunida patologik uchoqdagi o'zgarishlar sezilarli bo'lmasada tajribaning 7-kunida hayvonlarning oqsashi yo'qolganligi kuzatilgan bo'lsa, tajribaning 10 – kunida hayvonlar erkin harakatlanganligi tuyoq bo'g'inlaridagi og'riqlar va oqsashlar yo'qolganligini tajriba davomida kuzatdik.

Tajribadagi ikkinchi guruh hayvonlariga an'anaviy usulga qo'shimcha ravishda oksitetratsiklin ma'zi jarohat joylariga bog'lab ishlov berilgan bo'lsa qo'shimcha ravishda Belarussiyadan keltirilgan vetatsef-50 antibiotigidan 450-500 kg tirik vaznga 15 ml dan 7 kun davomida bir marotabadan muskul orasiga in'eksiya qilindi. Shuningdek Butazol-100 bioqo'zg'atuvchisidan vena qon tomiriga 20 ml dan ikki kunda bir marta qo'llanilgan hayvonlarda ham davolashning 4- kunida deyarli o'zgarishlar bo'lmagan, lekin davolashning 10-kuniga kelib tuyuq va bo'g'indagi patologik jarayonlar yaxshilangan bo'lsada bo'g'indagi shishlar va hayvondagi oqsash alomatlari davolashning 13-kuniga kelib to'lig'icha sog'ayganligi kuzatildi.

Bundan ko'rinib turibdiki mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda uchraydigan tuyuq bo'g'in kasalliklarini samarali davolash uchun linkospekt -150 antibiotigidan tajribadagi birinchi gurux hayvonlarida davolash muddati 10- kunda tajribadagi ikkinchi guruh hayvonlariga nisbatan o'z samarasini berganligi yaqqol namoyon bo'ldi.

V.AMALIY TAVSIYALAR.

Bizni ilmiy izlanishlarimiz Shuni kursatdiki, chetdan keltirilgan mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarda uchraydigan tuyoq bo'g'in kasalligi bilan kasallangan hayvonlarni aksariyatida, kunlik sut berish miqdorini keskin kamayib ketishi hisobiga xo'jalikka katta iqtisodiy zarar keltirmoqda. Bu esa aholini sifatli gusht va sut mahsulotlariga bo'lgan extiyojini oshishiga olib keladi. Yuqoridagi ilmiy izlanishlarimizdan ko'rinib turibdiki, mahsuldorligi Yuqori bo'lgan hayvonlarni to'g'ri parvarishlashni tashkil etishda samarali usullarni amaliyotga joriy etish orqali xo'jaliklarda uchrayotgan tuyoq bo'g'in kasalliklarini oldini olish mumkin.

Yuqoridagi ilmiy tajribalarimizdan kelib chiqqan xolda qo'ydagilarni tavsiya qilamiz:

Birinchidan xayvonlar saqlanadigan fermalarni oziqa ratsioniga qo'shimcha ravishda mikro va makro elementlar bilan boyitish lozimligini.

Ikkinchidan mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarni tuyoqlariga vaqtida ishlov berishlarini ya'ni tuyoqlarni kesish texnikasiga rioya qilgan xolatda tuyoqlarga zarar etkazmasdan kesish tufayli hayvonlarni bo'g'inlariga zarar etishini oldi olinishga erishish mumkin.

Uchunchidan hayvonlar kunlik sog'ishga kirgizilishi oldidan va sog'ishdan chiqarilishi vaqtida kirish chiqish yo'laklariga 3% li farmalinli eritmalar solingan vannalardan olib o'tilishi tavsiya etiladi.

To'rtinchidan hayvonlarni yayratish maydonlariga quyosh nurlari tushadigan xolatda bo'lishi va begona yot jismlardan holi bo'lgan tuproqli maydonda bir necha bor yayratilishi tuyoq bo'g'in kasalligini oldini olishga katta yordam beradi.

Bundan tashqari tuyoq bo'g'in kasalligini davolashda linkospekt -150 antibiotigini qo'llab davolagan sxemamizdan foydalanib davolaganda kasallikni 10 kunda bartaraf etishini hisobga olgan holda yaxshi samara berishini tavsiya qilamiz.

VI.Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi.

Respublikamizning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida bozorli iqtisodiyotga o'tish sharoitida amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning asosiy maqsadi mavjud imkoniyatlar va intellektual salohiyatni safarbar etib, qishloq xo'jaligida, xususan chorvachilikda mahsulotga xom-ashyo ishlab chiqarish sur'atini oshirishda, hayvonlarning salomatligi va Davlatimiz hududining epizootik sog'lomligini ta'minlashda yuqori malakali va iqtisodiy samara beruvchi veterinariya xizmatini tashkil etish hamda amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu dolzarb vazifalarni bajarish va ezgu maqsadlarga erishishda "Veterinariya ishini tashkillashtirish va uning iqtisodi" fanining ham o'z ulushi bo'lajak, chunki bu fan veinariyaning barcha kasbiy ilmlari hamda fan va amaliyoti yutuqlarini umumlashtirgan bo'lib, chorva mollari va parrandalarning bosh sonini ko'paytirish, ularning mahsuldorligini oshirish, barcha hayvonlarning sog'lomligini muhofaza qilish, yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni oldini olish, davolash hamda qarshi kurashishda amaliy tashkilotchilik xizmatini ko'rsatadi. Ayni paytda xalq xo'jaligining iqtisodiyotida, ijtimoiy hayotda va mudofaa xizmatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda veterinariya xizmati - bu davlat tashkilotlari, qishloq xo'jalik korxonalari va jamoat muassasalarining hamkorlikdagi tadbiriy choralari bo'lib, chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlarni kasallanishdan saqlash, davolash, chorva mollarining maxsuldorligi va mahsulot sifatini oshirish, shu jumladan insoniyatni hayvon va odamlar uchun umumiy bo'lgan kasalliklardan saqlash kabi doir va mas'uliyatli, ayni paytda sharaflil vazifalarni o'z zimmasiga oladi.

Veterinariya xizmati - davlatimiz qishloq xo'jalik majmuining asosiy sohalaridan biri bo'lib xalq xo'jaligining qo'yidagi tarmoqlari bilan xam uzviy bog'langan:

1) Chorvachilik (shu jumladan: parrandachilik, baliqchilik, mo‘ynachilik, asalarichilik va hokazo);

2) Chorvachilik mahsuloti va xom ashyolarini qayta ishlovchi sanoat korxonalari (go‘sht va sut kombinatlari, konservalar ishlab chiqaradigan korxonalar, mahsulot muzlatkichlari, teri va junni qayta ishlash zavodlari, utilzavodlar);

3) Transport (temir yul, avtomobil, suv va havo) - chorva mollari va ularning mahsulotlarini tashiydigan;

4) Savdo-chorva mollari va ularning mahsulotlarini sotish tarmoqlari. Bundan tashqari veterinariya tadbiriy choralari - oziq-ovqat, bozorlar va boshqa sanoat tarmoqlarida, chorva mollari va ularning mahsulotlarini import va eksport qilishda ham o‘tkaziladi.

Chorvachilik va parrandachilikda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan barcha veterinariya tadbirlarini rejali ravishda bir paytning o‘zida tashkillashtirilishi hamda moddiy-moliyaviy ta‘minlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun barcha veterinariya xizmati mutaxassislari (davlat, idoraviy, xususiy) o‘z ish o‘rinlarida doimiy tarzda veterinariya tadbirlarining rejasini tuzishi hamda okilona tashkil etib, ijrosini ta‘minlashlari talab etiladi. Bu esa turli yuqumli kasalliklarni oldini olish va davolash hamda tugatishda muhim ahamiyatga ega.

Veterinariya tadbirlari qo‘yidagi 4-ta guruxga bulinadi:

1. Tashkiliy xo‘jalik tadbirlari
2. Profilaktik tadbirlari
3. Veterinariya-sanitariya tadbirlari
4. Davolash tadbirlari

Ushbu tadbirlarni xo‘jalik veterinariya mutaxassislari amalga oshiradilar. Davlat veterinariya mutaxassislari esa tadbirlarning o‘tkazilishini nazorat qiladi va ko‘maklashadi. Umumiy profilaktik tadbirlar xo‘jalik va zootexnikaviy tadbirlar bilan chambarchas bog‘lik bo‘ladi. Chunki bu tadbirlarni amalga oshirish natijasida mol saqlanadigan fermalarning tozaligini, sifatli va sog‘lom chorva

mahsulotlari, mollarning zaharlanishi, yuqumli va yuqumsiz kasalliklar bilan zararlanishni oldini olishini ishlab chiqarish ta'minlanadi.

Umumiy profilaktik tadbirlarga qo'yidagilar kiradi:

1. Molxonalarni mexanik tozalash

2. Molxona atrofini go'ng va har xil chikindilardan tozalash Veterinariya statistikasining ma'lumotlari Shuni ko'rsatdiki, kasallangan hayvonlarning umumiy sonini 80%-dan ko'prog'i yuqumsiz kasalliklarga to'g'ri kelib, asosan hayvonlarni oziqlantirishning buzilishi va ularni qoniqarsiz saqlash natijasida kelib chiqadi va chorvachilik tarmog'iga katta iqtisodiy zarar keltiradi.

Ma'lumki, tashkiliy xo'jalik va davolash, oldini olish choralari, fermalarda veterinariya-sanitariya madaniyatini kuchaytirish, umumiy oldini olish vositalaridan foydalanish, kasal hayvonlarni davolash usullari va ilg'orlarning tajribalarini joriy qilish evaziga chorva mollarning yuqumsiz kasalliklar bilan kasallanishi va o'lishining kamayishi ta'minlanadi.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining yuqumsiz kasalliklar bilan kasallanishini kamaytirish - bu chorvachilik mahsulotlarini ishlab chikarishning o'sishi va uning rentabelligining ortishiga imkon yaratish demakdir.

VII. Mexnat faoliyati xavfsizligi va fuqarolar mudofaasi .

Chorva mollarining mahsuldorligini oshirish, ularning sog'lig'ini yaxshilash, em-xashak tayyorlash va veterinariya xizmatini ko'rsatish chorvadorlarning asosiy vazifalaridan biridir. Bu masalalarning muvaffaqiyatli hal etishshshi keng tarqaladigan kasalliklarga qarshi o'z vaqtida profilaktika chora-tadbirlarni o'tkazish, hayvonlarni yaxshi parvarishlashga va boqishga bog'liqdir. Shuning uchun chorva mollari boqilayotganda gigiena va mehnat xavfsizligiga rioya qilish, Shuningdek diagnostika, davolash yoki profilaktika ishlarini olib borishda ularni harakatsizlantirib (fiksatsiya) qo'yish alohida ahamiyatga ega. Chorva mollarni parvarishlaganda elementar xavfsizlik choralariga rioya qilinmasa xizmat ko'rsatuvchi chorvador va hayvonlar jarohatlanishga sabab bo'ladi. Shuningdek zoogigiena va shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilmaslik yoki uni bilmaslik kishilarni va hayvonlarni kasallanishga olib keladi. Texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi ishlarini tashkil etish, boshqarish va javobgarlik xo'jalik rahbarlariga, shuniigdek tarmoq bo'yicha hamma amaliy ishlarni bajarish bosh zoomuxandis va bosh veterinariya shifokoriga yuklanadi. Qoidaga muvofiq 18 Yoshga to'lmagan va homilador ayollarni ayg'ir otlarga, erkak cho'chqalar va buqalarga xizmat ko'rsatishi qat'iy man etshtadi. Qolgan chorva mollarga xizmat ko'rsatishga, tibbiyot ko'rigidan o'tgan va kasaba uyushmasi qo'mitasining ruxsati bo'lgan, 16 yoshga to'lgan o'smirlar qo'yiladi. Ferma yoki molxonada chorvador va zoovetmutaxassislardan boshqa shaxslar bo'lishi mumkin emas. Asov mollar boqiladigan kataklar yonidan o'tishda ulardan ehtiyot bo'lishlik to'g'risida ogohlantiruvchi (ehiyot bo'ling, buqa, sigir suzadi, ot tepadi, tishlaydi va boshq.) yozuvlar ilib qo'yiladi. Hayvonlar bilan har doim sekin va erkalash muomalasida bo'lmoq kerak.

Hayvonlar bog'lab boqilganda bog'lagich (zanjir, arqon va boshq) mustahkam bo'lishi, bog'laganda sigir bo'ynini siqmasligi kerak. Veterinar ko'rsatmalariga ko'ra suzadigan sigirlarning shoxlari olib tashlanadi. Sigir sog'layotganda dumi oyog'iga bog'lab qo'yiladi. Sut sog'uvchilarning shaxsiy

o'rindiqlari qulay va mustahkam bo'lishi lozim. Buzoqlar guruhli usul bilan emizilganda yuvosh sog'in sigirlardan foydalanish kerak.

Buqalar boquvchi va atrofdagilarga xavf tug'dirmasligi zarur. Molboqar shu sohada o'qigan va xavfsizlik qoidalari bo'yicha attestatsiyadan o'tgan bo'lishi kerak. Attestatsiyani xo'jalik raxbarining buyrug'i bilan tuzilgan komissiya o'tkazadi. Buqa boqiladigan qo'ralarning balandligi 1,5 m dan kam bo'lmagan metall qo'ra bilan o'ralgan bo'lishi lozim. Buqalar ikkita zanjir bilan bo'ynidan ikki tomonga bog'lanadi. Ularni burnidagi halqasidan bog'lash man etish kerak. Buqalar burun halqasiga ulangan no'xtada, uzunligi 2 m kaltak bilan o'tlatiladi. Bunday moslama buqani to'satdan tashlanganda harakatini cheklashini ta'minlaydi.

Buqalarni sigirlar bilan birga o'tlatish mumkin emas. Buqalardan urug' olish uchun maxsus stanoklardan foydalanishadi, bu esa atrofdagilar uchun xavfsizlik sharoitini yaratadi.

Erkak cho'chqalarga xizmat ko'rsatishda juda ehtiyotkor bo'lish zarur. Ular maxsus cho'chqaxonalarda yoki alohida kataklarda boqiladi. Kataklar orasidagi qo'ra temirdan yasalgan bo'lib, balandligi 1,4 m dan iborat. Erkak cho'chqalar qochirish yoshiga etganda qoziq tishlarining o'sishiga qarab arralab tashlanib, egovda silliqlab qo'yiladi. Erkak cho'chqalar saqlanadigan kataklardagi oxurlar va sug'orgichlar shunday joylashgan bo'lishi kerakki, cho'chqaboqar emni va suvni katakka kirmay, yo'lakdan solib ketadigan bo'lsin.

Kataklar hayvonlar bo'lmagan vaqtda tozalanadi. Urchish vaqtida bezovta bo'layotgan erkak cho'chqalarga ta'sir ko'rsatish maqsadida cho'chqaboqar yonida suvli chelak bo'lishi zarur. Hayvonlarga xizmat ko'rsatish uchun kerak bo'lgan vositalar, albatta, shaxsan ma'lum bir ishchiga biriktirilgan bo'lishi lozim.

Fermalarning eshiklari yaxshi yopiladigan va ular turgan kataklar ozoda bo'lishi kerak. Hayvonlarga xizmat ko'rsatayotganda charm yoki qavilgan qo'lqoplardan foydalaniladi. Ferma ichkarisidagi hayvonlarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish uchun maxsus yashiklar va qafaslar bo'ladi, ulardan bo'shagandan

so'ng molxona veterinarning topshirig'i bo'yicha dezinfeksiya qilinadi. Hayvonlar vagonlarda, samolyotlarda va kemalarda tashilganda qafaslar bir necha qavat qilib devor tomonga joylashtiriladi.

Hayvonlar maxsus ajratilgan xonalarda, ma'lum shaxslar tomonidan so'yiladi. Kushxona ventilyasiya, ilgichlar, stellajlar, stollar, yakka qo'yiladigan stanoklar bilan jihozlangan bo'lishi kerak, SHu bilan bir qatorda etkazib beruvchi va silkituvchi barabanlar, dezvositalar, so'yilgan hayvonning nimtalangan go'shti uchun yashchiklar xam mavjud bo'ladi. Kushxonada terilarga ishlov berish qat'iyman etiladi.

Yirik shoxli mollar bir joydan ikkinchi joyga haydab o'tilganda ko'pincha jarohatlanadi. Shuning uchun oldindan profilaktika choralari ko'rish kerak. Bu choralar kuyidagilardan iborat podalarni jinsiga, yoshiga, nimjon, baquvvatligiga, mahsuldorligiga va bo'rozligiga ko'ra maxsus guruhlariga ajratiladi. Podadagi mollar boshi 150 tadan ortmasligi, ular kuniga 15 km dan uzoq yurmasligi kerak. Kunduzi chorva mollariga bir necha marta dam beriladi.

VIII. ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг мамлакатимизни 2015 йилда ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси
2. Каримов. И.А. “Кучли давлатдан кучли жамият сари ”.Тошкент “Шарқ”, 1998 йил
3. Каримов И.А. “Юксак маънавият энгилмас куч” Тошкент “Ўзбекистон”, 2008 йил.
4. Каримов И.А. “Шахсий ёрдамчи, деҳқон ва фермер хўжаликларилари чорва молларини кўпайтиришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2006 йил 23 март 308-қарори.
5. Каримов И.А. “Ўзбекистонда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида”. Тошкент “Ўзбекистон”, 1995 йил.
6. Каримов И.А. “Ўзбекистон ХХИ асрга интиломқда”. Тошкент “Ўзбекистон”, 1999 йил.
7. Каримов И.А. “Ислохотларни амалга оширишда қатъиятли бўлайлик”. Тошкент “Ўзбекистон”, 1996 йил.
8. Каримов И.А. “Адолатли жамият сари”. Тошкент “Ўзбекистон” 1998 йил
9. Каримов И.А. “Қишлоқ хўжалик тарққиёти тўкин ҳаёт манбаи”
10. Каримов И.А. “ Биз танлаган йўл демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли ” Тошкент “Ўзбекистон”, 2003 йил.
11. Каримов И.А. “ Жаҳон молиявий иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари” Тошкент “Ўзбекистон”, 2009 йил.
12. Каримов И.А. “ХХИ аср бўсағасида ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари”.Тошкент

“Ўзбекистон”, 1997 йил.

13. Каримов И.А. “Ватан саждагоҳ каби мукаддасдир”. Тошкент “Ўзбекистон”, 1995 йил.
14. Улимбашев М. Б. Резистентност к болезням конечностей и биофизическая характеристика копытцевого рога коров (Текст) Ветеринария, 2007. -№ 9. – С. 44.
15. Дистл, Коорн Д. С., Мс Даниел Б. Эт ал. Ливерст. Прод. Сси. 1990. - № 25.
16. Политиек Р.Д, Дистл О., Фжелдаас Т. Эт ал. Ливерст. Прод. Сси. 1990. - № 25.
17. Бовей Р. Саттле ламенесс анд хоофсаре. – Ипвич, 1993.
18. Таштемиров Р.М., Каримов М.Г. Ортопедия Самарқанд 2012 йил
19. Веремей э. И. Этиопатогенез и современные подходы к лечению гнойно-некротических протсессов в области копытетс и палсев у КРС (Текст)
20. Е.И.Веремей, В.А.Журба, В.А. Лапина Ветеринарный консультант, 2003. - № 16. – С.10-11.
21. Молоканов В.А. Прогнозирование и профилактика болезней копытетс у коров (Текст) В.А.Молоканов, В,М,Шеглов, М.Т.Байкенов Ветеринария, 2001. -№7.-С.38-40
22. Астапенко М.Г. Дифференциальная диагностика артритов и артрозов. //Журнал “Клиническая медитсина”. – 1984. - №9. - С.128-134.
23. Богданович У.Я. Лазерная фототерапия Меджурнал. – Казан, 1981. Т.62. - №5. - С.59-62.
24. Братюха С.И. Состояние опорно-двигательного аппарата у бычков, откармливаемых гиомом Журнал Ветеринария. – 1989.- №11. - С.55-69.
25. Бурденюк А.Ф. Болезни конечностей у продуктивных животных. – К.Урожай, 1976. – 132 с.

26. Горбачев В.В., Кривитский В.Н. Применение лидазы в комплексном лечении некоторых болезней суставов Терапевтический архив. – 1973.- №11. - С.103-104
27. Давлатов Н.Ш., Ниёзов Ҳ.Б. ва бошқ. Соғин сигирларда кенг тарқалган асептик бўғим касаллигини даволашнинг самарадор усуллари //Қишлоқ хўжалигида бозор ислохотларини кескин чуқурлаштириш муаммолари – Самарқанд, 1998.- С.74-83.
28. Захаров В.И. Травматизм при содержании животных на открытой площади Ветеринария.– 1980.- №11. - С.53-54.
29. Корис А.В. Лазерное излучение для профилактики исследований заболеваний у овец Ветеринария. – 1990.
30. Кудрявцев А.П. Профилактика болезней конечностей у коров Ветеринария. - 1983. - №3. -С.63-64.
31. Кузнецов Г.С. Хирургические болезни животных в хозяйствах промышленного типа. Л.: Колос, 1980. 250 с.
32. Матвеев В.Л. Некоторые вопросы патогенеза и терапии синовитов // Ветеринария. - 1968. - №10.- С.84-86
33. Матвеев А.В., Семиволос А.М. Предупреждения травматизма железистых скота Ветеринария.– 1974.- №7. - С.91-92.
34. Мосин В.В. Новое в лечении незаразных болезней сельскохозяйственных животных – Москва, Росселхозиздат. 1975. - 5-25 с.
